


VOLUME #3  
ISSUE#7,  
IYUL 2025



**«YANGI O‘ZBEKISTONDA  
TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR  
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY  
KONFERENSIYASI**



**Research Science and  
Innovation House**

 <https://universalpublishings.com>  
[editor@universalpublishings.com](mailto:editor@universalpublishings.com)

**ISSN** INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER



**«YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR  
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI.**

31.07.2025-yil.

Ushbu to'plamda « **YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR  
FANLAR**» ilmiy konferensiyasi 2025-yil 3-soni 7-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.


Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo, Open Aire, Google  
Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



**“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION  
HOUSE” MCHJ**

**TAHRIRIYAT**

**Bosh muharrir:** Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O'zbekiston.

**Mas'ul kotib:** Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

**Nashrga tayyorlovchi:** Eshqarayev Samariddin Sadridin o'g'li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

**TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI**

**Texnika fanlari muharriri,** Eshqarayev Ulug'bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O'zbekiston.

**Texnika fanlari muharriri** Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Kimyo fanlari muharriri** Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

**Kimyo fanlari muharriri,** Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Iqtisodiyot fanlari muharriri** Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri,** Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Otamurodov Furqat Abduraimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Biologiya fanlari muharriri** Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Sotsiologiya fani muharriri** Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

**Filologiya fanlari muharriri** Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

**Fizika-matematika-fanlari muharriri** Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

**"YANGI O‘ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR  
FANLAR" RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY KONFERENSIYASI**  
**Volume 3, Issue 7, Iyul 2025**

**Tibbiyot fanlari muharriri** Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tibbiyot fanlari muharriri** Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

**Gumanitar fanlar muharriri** Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

**KAZUO ISHIGURONING "THE REMAINS OF THE DAY" ROMANIDA XOTIRA,  
PUSHAYMONLIK VA SHAXSIY IDENTITET MUAMMOSI**

**Usmonova Gavhar Tolib qizi**

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti  
Lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrası mustaqil izlanuvchisi  
e-mail: [talibovnagavhar@gmail.com](mailto:talibovnagavhar@gmail.com)

**Annotatsiya:** Kazuo Ishiguroning "*The Remains of the Day*" romani inson xotirasi, pushaymonlik va shaxsiy identitet masalalarini chuqur tahlil qiladi. Bosh qahramon Stivensning hayoti va xizmatga sodiqligi orqali asar ijtimoiy rol va shaxsiy ehtiyojlar o'rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Roman xotiraning subyektivligi va kechikkan anglashning inson ruhiyatidagi o'rnini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** xotira, pushaymonlik, shaxsiy identitet, ijtimoiy rol.

**Аннотация:** Роман Кадзуо Исигуро «*Остаток дня*» глубоко исследует темы памяти, сожаления и личной идентичности. Через жизнь и преданность главного героя Стивенса произведение раскрывает конфликт между социальными ролями и индивидуальными потребностями. Роман подчеркивает субъективность памяти и важность позднего осознания в человеческой психике.

**Ключевые слова:** память, сожаление, личная идентичность, социальная роль.

**Abstract:** Kazuo Ishiguro's "*The Remains of the Day*" deeply explores themes of memory, regret, and personal identity. Through the life and devotion of the protagonist Stevens, the novel reveals the conflict between social roles and individual needs. It highlights the subjectivity of memory and the significance of delayed realization in the human psyche.

**Keywords:** memory, regret, personal identity, social role.

## **Kirish**

Adabiyot inson ichki olamini ochishda eng kuchli vositalardan biri sanaladi. Ayniqsa, zamonaviy ingliz adabiyoti vakili Kazuo Ishiguro o'z asarlarida inson ongining murakkabliklari, xotira va identitet masalalariga chuqur yondashadi. Uning 1989 yilda chop etilgan "The Remains of the Day" romani ham aynan shu yo'nalishda yozilgan bo'lib, asarda bosh qahramon Stivens hayotining ma'nosi, xizmatga sadoqat va insoniy his-tuyg'ular o'rtasidagi murakkab ziddiyatlar tahlil etiladi. Ushbu maqolada roman doirasida xotira, pushaymonlik va shaxsiy identitet muammosi tahlil qilinadi.

## **Asar haqida qisqacha**

Kazuo Ishiguroning "*The Remains of the Day*" romani inson xotirasi va o'zini anglash jarayonini chuqur tahlil qiluvchi asardir. Asarda bosh qahramon, Butler Stivens o'z umrining so'nggi bosqichida o'tmish hayoti va kasbiga sodiqlik borasida chuqur mulohaza yuritadi. U ingliz aristokratiyasiga sadoqatli xizmat qilgan bo'lishiga qaramay, hayotidagi muhim qarorlarni qayta ko'rib chiqib, o'zining insoniy fazilatlarini, his-tuyg'ulari va pushaymonliklariga duch keladi.

Roman Stivens obrazida ijtimoiy rollar va shaxsiy identitet o'rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Uning darajasi yuqori bo'lmagan, biroq inson o'zligini unutib bor vujudi bilan o'z ishiga bo'lgan professionalligi, unga insoniy ehtiyojlardan kechishga sabab bo'ladi. Asarda xotiraning subyektivligi va inson ongining o'zini oqlashga moyilligi muhim o'rin egallaydi. Stivens o'zini oqlashga urinadi, biroq uning ichki ovozi orqali o'quvchi bu bahonalarni savol ostiga qo'yadi.

Asarda pushaymonlik va kechikkan anglash kuchli dramatik kuchga ega. Stivens va Miss Kenton o'rtasidagi hal bo'lmagan munosabatlar insoniy imkoniyatlarning boy berilishi motivini ifodalaydi. Bu orqali muallif inson hayotining "qolgan kunlari"ni qanday o'tkazish masalasini o'rta tashlaydi — inson o'z o'tmishini qanday baholaydi va kech bo'lsa-da o'zini qanday topa oladi? Topa olganida juda kech bo'lmasmikin, har bir ishni o'z vaqti soati borligini asar qahramonlarining ruhiyatida kechgan hissiyotlar orqali korib boriladi.

## **Asosiy qism**

### **1. Xotira va inson ongi**

Roman orqali Butler Stivensning hissiy kechinmalari afsus va nadomatlar hikoya qilinadi. Asar davomida Stivens o'z hayoti haqida orqaga nazar tashlab, o'zini oqlashga urinadi. Bu retrospektiv shaklda berilgan hikoya orqali muallif xotiraning subyektivligi, ya'ni inson o'z xotiralarini qanday «qurishi», ularni o'z holatiga moslab o'zgartirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Masalan, Stivensning sobiq xo'jayini Lord Darlington bilan bo'lgan aloqalari bo'yicha yillar davomida iftixor bilan gapiradi. Biroq vaqt o'tib, Lord Darlingtonning siyosiy qarorlari noto'g'riligini tan olgan holda, Stivens o'z fikrlarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi. Bu esa xotiraning faqatgina o'tmish haqiqatini emas, balki hozirgi anglash darajasini ham aks ettirishini ko'rsatadi.

### **2. Pushaymonlik va kechikkan anglash**

Roman davomida Stivens hayotidagi bir nechta muhim qarorlar ustida qayta-qayta o'ylaydi, ayniqsa Miss Kenton bilan bo'lgan munosabatlar unga kechikkan tushunish va chin yurakdan pushaymonlik hissini uyg'otadi.

U Miss Kenton bilan yaqinlik o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lgan, biroq kasbga bo'lgan haddan tashqari sadoqat va hissiy sovuqlik uni bu imkoniyatdan mahrum qilgan. Stivens orqaga qarab, bu qaroridan afsuslanadi, ammo vaqt o'tib ketgan – endi u faqat "qolgan kunlari"ni qanday o'tkazishi haqida o'ylashi mumkin, bu esa roman nomi bilan bevosita bog'liq.

### **3. Shaxsiy identitet va ijtimoiy rol**

Stivens o'zini butunlay kasbga bag'ishlagan inson sifatida tasvirlanadi. U o'zining haqiqiy "men"ini butlerlik rolga "yashirib" qo'ygan. Asarda bu ijtimoiy rollar va shaxsiy identitet o'rtasidagi muvozanat yo'qligi fojiali oqibatlariga olib keladi.

Stivens boshqalarga xizmat qilishni eng oliy vazifa deb hisoblagan, biroq o'z shaxsiy baxti va ehtiyojlarini e'tibordan chetda qoldirgan. Roman yakuniga kelib, u bu haqda o'ylay boshlaydi, ammo hayotining ko'p qismi allaqachon o'tib ketgan bo'ladi.

## **Xulosa**

“The Remains of the Day” romani inson xotirasi, identitet va kechikkan anglash orqali ichki ruhiy kurashni yoritadi. Ishiguro asarda fojiali va murakkab psixologik portret yaratadi — Stivens obrazida insonning o'z hayoti ustidan nazorat yo'qligi, kechikkan anglash va pushaymonlik dramatik shaklda tasvirlanadi. Ushbu asar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan, chunki u har bir o'quvchini o'z hayoti va qadriyatlariga haqida chuqur o'ylashga undaydi. Kazuo Ishiguroning *"The Remains of the Day"* romani – bu inson ongining noaniqligi, xotiraning ishonchsizligi va vaqtga bo'ysunuvchi hayot haqiqatlari haqida o'ta nozik va falsafiy mushohadadir. Asar orqali muallif insonning o'zini o'zi anglash jarayoni ko'pincha kechikib borishini, hayot davomida qabul qilingan qarorlar esa nafaqat tashqi omillar, balki ichki hissiy blokirovkalar ta'sirida shakllanishini ko'rsatadi.

Stivensning qahramon sifatida fojaviy kuchi shundaki — u butun hayotini ma'naviy sadoqat, kasbiylik va mukammallik tamoyillariga asoslangan holda quradi, lekin bu yo'l uni insoniy yaqinlik, samimiylik va shaxsiy baxtdan yiroqlashtiradi. Uning ichki iztirobi — bu oddiy pushaymonlik emas, balki o'z hayotini ongli tarzda baholash va tan olishga bo'lgan kechikkan intilishdir. Bu esa roman g'oyasini universal qiladi — har bir inson hayotining "qolgan kunlari"da o'zini qayerda ko'rishini va qanday yashashni tanlashi muhim.

Shuningdek, Ishiguro shuni ta'kidlaydiki, inson xotirasi — bu statik arxiv emas, balki hayot davomida o'zgarib boradigan, ko'pincha o'zini oqlashga xizmat qiladigan mexanizmdir. Shuning uchun roman nafaqat tarixiy yoki individual o'tgan hayot haqida hikoya qiladi, balki u o'z-o'zimizga bergan savollarimiz, qilinmagan tanlovlarimiz va kech anglangan haqiqatlar haqida hamdir.

Demak, “The Remains of the Day” – bu insonning ichki haqiqat bilan yuzlashuvi haqida yozilgan asar bo'lib, u nafaqat ingliz jamiyati, balki har qanday jamiyatda o'zini yo'qotgan, lekin o'zini izlayotgan har bir inson uchun ahamiyatlidir.

**Adabiyotlar ro'yxati :**

1. Ishiguro, K. (1989). *The Remains of the Day*. London: Faber & Faber.
2. Barry, P. (2009). *Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Theory*.
3. Lewis, B. (2000). "Memory and Identity in Kazuo Ishiguro's Fiction". *Contemporary Literature Review*, Vol. 35.
4. Mullan, J. (2000). *How Novels Work*. Oxford: Oxford University Press.
5. Tötösy de Zepetnek, S. (2014). *Comparative Literature: Theory, Method, Application*. Amsterdam: John Benjamins Publishing.
6. Smith, A. (2012). "The Politics of Memory in Postwar British Literature". *Journal of Modern Literature*, Vol. 35, No. 4, pp. 45-67.
7. Wilson, R. (2003). "Identity and Service in British Butler Narratives". *Studies in English Literature*, Vol. 43, No. 1, pp. 85-103.
8. Eagleton, T. (2008). *Literary Theory: An Introduction*. Minneapolis: University of Minnesota Press.
9. Bennett, A., & Royle, N. (2004). *An Introduction to Literature, Criticism and Theory*. London: Pearson Education.

**TABIIY OFATLAR XAVFINI KAMAYTIRISHDA YASHIL  
IQTISODIYOTNING MOLİYALASHTIRISHDAGI ROLI**

**РОЛЬ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В ФИНАНСИРОВАНИИ СНИЖЕНИЯ  
РИСКОВ ПРИРОДНЫХ КАТАСТРОФ.**

**THE ROLE OF GREEN ECONOMY IN FINANCING THE REDUCTION OF  
NATURAL DISASTER RISKS.**

**Tursunboyeva Maxsuda**

*“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar Akademiyasi” «Pedagogika va psixologiya»  
kafedrasi o‘qtuvchisi.*

*[maxsudatursunboyeva18@gmail.com](mailto:maxsudatursunboyeva18@gmail.com) Тел: +998 95 908 61 18*

***Annotatsiya.***

Ushbu maqolada tabiiy ofatlarning insoniyat hayoti va iqtisodiy faoliyatga ko‘rsatgan ta’siri, tarixiy va zamonaviy misollar orqali tahlil qilinadi. Tabiiy ofatlarga qarshi kurashishda ekologik yondashuvlar va yashil iqtisodiyot konsepsiyasining ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Xususan, qayta tiklanadigan energiya, ekologik xavfsiz texnologiyalar va resurslardan oqilona foydalanish kabi omillar orqali ofatlar xavfini kamaytirish imkoniyati yoritiladi. Niderlandiya va O‘zbekiston misolida yashil iqtisodiyotga o‘tishning dolzarbligi va xalqaro moliyaviy ko‘makning bu boradagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik, balki iqtisodiy barqarorlikni ham ta’minlashga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

***Аннотация.***

*В данной статье анализируется влияние природных катастроф на жизнь человечества и экономическую деятельность, приводятся исторические и современные примеры. Рассматривается важность экологических подходов и концепции зеленой экономики в борьбе с природными катастрофами. В частности, освещается возможность снижения рисков катастроф с помощью таких факторов, как использование возобновляемых источников энергии, экологически безопасных технологий и рациональное использование ресурсов. Приводятся примеры*

*Нидерландов и Узбекистана, где переход к зеленой экономике и роль международной финансовой помощи в этом процессе подчеркиваются. Зеленая экономика не только способствует экологической безопасности, но и обеспечивает экономическую устойчивость.*

**Abstract.**

*This article analyzes the impact of natural disasters on human life and economic activity, providing historical and contemporary examples. The importance of ecological approaches and the concept of a green economy in the fight against natural disasters is discussed. Specifically, it highlights the possibility of reducing disaster risks through factors such as the use of renewable energy sources, environmentally safe technologies, and the rational use of resources. Examples from the Netherlands and Uzbekistan are given, where the transition to a green economy and the role of international financial assistance in this process are emphasized. The green economy not only contributes to environmental safety but also ensures economic sustainability.*

*Kalit so'zlar.*

*Tabiiy ofatlar, yashil iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik, iqlim o'zgarishi, moliyalashtirish, barqaror taraqqiyot, O'zbekiston tajribasi, delta Works (Niderlandiya), qayta tiklanuvchi energiya.*

**Ключевые слова.**

*Природные катастрофы, зеленая экономика, экологическая безопасность, изменение климата, Финансирование, устойчивое развитие, опыт Узбекистана, Delta Works (Нидерланды), возобновляемая энергия.*

**Key words.**

*Natural disasters, green economy, environmental safety, climate change, Financing, sustainable development, Uzbekistan's experience, Delta Works (Netherlands), renewable energy.*

Tarixdan ma'lumki, tabiiy ofatlar insoniyat hayoti va iqtisodiy faoliyatiga jiddiy zarar yetkazib kelgan. Har bir davrda bunday ofatlar davlatlarning resurslarni boshqarish, infratuzilmani qurish va atrof-muhit bilan munosabatini qayta ko'rib chiqishga majbur qilgan. Qadimgi davrda insonlarning tabiat bilan munosabatlari kuchli bo'lgan. Chunki aholi aynan tabiat ne'matlari asosida kun kechirgan. Insoniyat sekin-asta tabiat bilan munosabatlarga kirisha boshlagan. Bu, ayniqsa, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishni boshlanganda kuchaya boshlagan. Natijada insoniyatning dunyo haqidagi dastlabki qarashlari aynan tabiat bilan bog'liq edi. Boshqa tomondan, qadimgi insonlarning momaqaldiroq, sel va suv toshqinlari, zilzila va kuchli bo'ronlar kabi tabiiy ofatlarga oid tushunchalari mavjud bo'lmagan. Qadimgi Yunonistonda tabiatga oid falsafiy qarashlar vujudga kela boshladi. Keyinchalik bunday falsafiy qarashlar qadimgi sivilizatsiyalarning boshqa qismlarida ham tarqala boshladi.<sup>1</sup>

Ayrim olimlar bugungi zamonaviy dunyoda ikki xil tabiiy ofatlar yuzaga kelganligini ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra, birinchi tabiiy ofatlar guruhiga tabiiy yuz beradigan zilzila, qum bo'ronlari yoki kuchli yomg'irlar kabi ofatlar kirsa, ikkinchi guruh tabiiy ofatlari inson xatosi va qilgan ishi natijasida yuzaga kelgan tabiiy ofatlardir. Chunki aynan inson qilgan xatolar tufayli ushbu ofatlar yuzaga kelgan. Masalan, o'rmonlarning yo'q qilinishi, daraxtlarning kesilishi yoki suvdan noto'g'ri foydalanish kabi omillar sababli qurg'oqchilik yoki chang-to'zonlar dunyoning ko'pgina shaharlariga xavf solmoqda. Shu sababli yaqin tarixda tabiiy ofatlarga oid qonunchilikda mazkur yangi omillar ham kiritilgan<sup>2</sup>

Xususan, XXI asrda global iqlim o'zgarishi sababli ofatlar soni va kuchi ortib bormoqda. Bu holat yashil iqtisodiyotga o'tishni va ushbu sohadagi loyihalarni moliyalashtirishni strategik zaruratga aylantirdi.

O'zbekiston tarixida ham tabiiy ofatlar iqtisodiy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatganiga ko'plab misollar mavjud. Masalan, 1914-yil Surxondaryo viloyatining Hisor tog' tizmasida yuz bergan kuchli sel hodisasi ko'plab qishloq xo'jaligi yerlari va yashash punktlarini yo'q

---

<sup>1</sup> Masalan, Vizantiya va Xitoyda bu bo'yicha qarashlar mavjud bo'lgan. Batafsil qarang: Franz Mauelshagen. Natural disasters and legal solutions in the history of state power. *Solutions in History* // January-February 2013. – p. 66.

<sup>2</sup> Spencer D. Segalla. *Empire and catastrophe: Decolonization and environmental disaster in North Africa and Mediterranean France since 1954.* – Nebraska: University of Nebraska Press, 2020. – p. 6.

qilgan, natijada aholi ko'chishga majbur bo'lgan. Shuningdek, 1946-yilda Farg'ona vodiysida sodir bo'lgan zilzila natijasida yuzlab inshootlar vayron bo'lib, iqtisodiy faoliyat bir necha yilga to'xtab qolgan. Ushbu voqealar shuni ko'rsatadiki, tabiiy ofatlarga qarshi kurashda faqat favqulodda choralar emas, balki oldini oluvchi, ekologik yondashuvlar muhim.<sup>3</sup>

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik xavfsiz texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya manbalari va resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi iqtisodiy modeldir. Bu model nafaqat atrof-muhitni himoya qiladi, balki ofatlarning iqtisodiy zararini kamaytirishga ham xizmat qiladi. Niderlandiya hukumati 1953-yilgi kuchli toshqindan so'ng "Delta Works" nomli yirik muhandislik loyihasini boshlagan. Bu loyiha dengiz toshqinlarining oldini olishga qaratilgan bo'lib, bugungi kungacha Niderlandiyaning yashil va xavfsiz iqtisodiyotini ta'minlab kelmoqda.<sup>4</sup>

O'zbekiston Respublikasi ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga e'tibor qaratmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasining Orolbo'yi hududida amalga oshirilayotgan "Yashil makon" loyihasi shular jumlasidandir. Ushbu loyiha doirasida xalqaro moliyaviy ko'mak (masalan, UNDP va GEF orqali) yordamida millionlab daraxt ko'chatlari ekilib, chang bo'ronlarining oldini olish choralari ko'rilmoqda. Bu – ekologik xavfsizlik orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish yo'lidagi muhim qadamlardandir.<sup>5</sup>

Davlatimiz rahbarining 2021 yilda Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik — 2030" ikkinchi xalqaro sammitida so'zlagan nutqidagi quyidagi iqtibosni keltirish mumkin: "Bugungi kunda ona tabiatning o'zi bizga yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga beparvo bo'lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Bugun "yashil taraqqiyot" borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo'lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo'q..."<sup>6</sup>

Tabiiy ofatlar faqat ekologik muammo emas, balki iqtisodiy tahdiddir. Shuning uchun, yashil iqtisodiyotni strategik asosda rivojlantirish, ekologik loyihalarni moliyalashtirish,

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti arxiv hujjatlari, 1914-yilgi voqealar to'plami.

<sup>4</sup> Manba: "The Delta Works: Engineering Against the Sea", Rijkswaterstaat, 2003.

<sup>5</sup> "Yashil iqtisodiyot to'g'risida"gi qonun loyihasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi rasmiy veb-sayti.

<sup>6</sup> <https://parliament.gov.uz/articles/1263>

tarixiy tajribalardan saboq chiqarish orqali biz ofatlar xavfini kamaytira olamiz. Bu esa barqaror taraqqiyotning ajralmas bo‘lagidir.

**Foydalanilgan manba va adabiyotlar**

1. Masalan, Vizantiya va Xitoyda bu bo‘yicha qarashlar mavjud bo‘lgan. Batafsil qarang: Franz Mauelshagen. Natural disasters and legal solutions in the history of state power. Solutions in History // January-February 2013. – p. 66.

2. Spencer D. Segalla. Empire and catastrophe: Decolonization and environmental disaster in North Africa and Mediterranean France since 1954. – Nebraska: University of Nebraska Press, 2020. – p. 6.

3. O‘zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti arxiv hujjatlari, 1914-yilgi voqealar to‘plami.

4. Manba: “The Delta Works: Engineering Against the Sea”, Rijkswaterstaat, 2003.

5. “Yashil iqtisodiyot to‘g‘risida”gi qonun loyihasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi rasmiy veb-sayti.

6. <https://parliament.gov.uz/articles/1263>

## **KAMBAG'ALLIK TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY-IJTIMOIIY ASOSLARI**

**Azamaliyeva Madinaxon**

Qo'qon universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur ishda kambag'allik tushunchasi va uning iqtisodiy hamda ijtimoiy asoslari keng yoritilgan. Kambag'allik nafaqat daromad yetishmovchiligi, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy resurslarga kirish imkonining cheklanganligi kabi ko'plab omillar bilan bog'liq tizimli muammo sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda kambag'allikning iqtisodiy sabablari, ijtimoiy oqibatlari va uni kamaytirishga qaratilgan davlat siyosatlari, xalqaro tajriba va kompleks yondashuvlar muhokama qilinadi. Xulosa qismida kambag'allikka qarshi kurashda tizimli, barqaror va inkluziv strategiyalarning zarurligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** kambag'allik, iqtisodiy tengsizlik, ijtimoiy resurslar, ishsizlik, ijtimoiy himoya, daromad

Kambag'allik muammosi dunyoning aksariyat mamlakatlarida dolzarb masala bo'lib, u nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Kambag'allik deganda insonning asosiy ehtiyojlarini – oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi hayotiy muhim xizmatlardan foydalana olmasligi tushuniladi. Ushbu tushuncha zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda turli yo'nalishlarda keng qo'llaniladi va u global miqyosda ham, milliy darajada ham aholi turmush darajasi, imkoniyatlar tengligi, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat kabi omillar bilan uzviy bog'liqdir. Kambag'allik faqat daromad yetishmovchiligi bilan emas, balki ta'limdan mahrumlik, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yo'qligi, ijtimoiy hayotda ishtirok eta olmaslik, siyosiy marginalizatsiya va boshqa ko'plab mezonlar bilan ham ifodalanadi.

Kambag'allik tushunchasining iqtisodiy asoslari avvalo daromadlar taqsimotidagi nomutanosiblik, iqtisodiy resurslarga kirish imkoniyatining cheklangani, ish o'rinlarining yetarli emasligi, ish haqining past darajada bo'lishi kabi holatlarga borib taqaladi. Kambag'allikni iqtisodiy jihatdan tahlil qilishda asosan daromad va iste'mol darajasining eng past chegarasiga e'tibor qaratiladi. Jahon banki tomonidan qabul qilingan xalqaro mezonlarga

ko'ra, kunlik 2,15 AQSh dollaridan kam daromad oladigan shaxslar "ekstremal kambag'al" hisoblanadi. Iqtisodiy nazariyalar nuqtayi nazaridan olib qaralganda, kambag'allik resurslardan noteng foydalanish natijasida yuzaga keladi, ya'ni kapital, yer, mehnat kabi asosiy ishlab chiqarish omillarining ba'zi ijtimoiy qatlamlar uchun yopiq bo'lishi ularga iqtisodiy imkoniyatlar yaratmaydi.

Ayniqsa, iqtisodiy transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirayotgan davlatlarda kambag'allik masalasi keskin tus oladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ishsizlikning ortishi, ijtimoiy himoya tizimining zaiflashuvi, davlat subsidiyalarining qisqarishi kambag'al qatlamning kengayishiga olib keladi. Aholining zaif qatlamlari, xususan, nogironlar, yolg'iz ayollar, ko'p bolali oilalar va nafaqaxo'rlar iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga juda sezgir bo'ladi. Bu esa davlat tomonidan ularga nisbatan qo'llaniladigan ijtimoiy siyosatni yanada kuchaytirishni talab qiladi. Shu o'rinda, iqtisodiy taraqqiyot faqat yalpi ko'rsatkichlar asosida emas, balki aholining turmush darajasi, resurslardan teng foydalanish imkoniyati va ijtimoiy adolat mezonlari asosida baholanishi lozim.

Kambag'allikning ijtimoiy asoslari esa undan ham murakkabroq va chuqurroq ildizlarga ega. Kambag'allik ijtimoiy tabaqalanish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga kirish imkoniyatining cheklanganligi, yashash sharoitlarining og'irligi, ijtimoiy chetlanish, diskriminatsiya va boshqa omillar bilan izohlanadi. Kambag'al kishining farzandlari ham ko'pincha o'sha ijtimoiy toifada qoladi, chunki ular sifatli ta'lim olish imkoniga ega emas, mehnat bozorida raqobatbardosh kasb egallay olmaydi va natijada kambag'allik avloddan-avlodga o'tadi. Bu holat ijtimoiy harakatchanlikni pasaytiradi va jamiyatda ijtimoiy qatlamlar o'rtasida uzilishlar yuzaga keladi. O'z navbatida, bu ijtimoiy norozilik, jinoyatchilik, zo'ravonlik kabi salbiy holatlarning kuchayishiga zamin yaratadi.

Agar kengroq tahlil qilinsa, kambag'allik jamiyatdagi ijtimoiy resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Ijtimoiy resurslarga ta'lim, tibbiyot, axborot texnologiyalari, transport va kommunikatsiya tizimlari kiradi. Agar shahar va qishloq o'rtasida, boy va kambag'al qatlamlar o'rtasida ushbu xizmatlar va imkoniyatlarga kirishda katta farq bo'lsa, bu kambag'allikni chuqurlashtiradi. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'plab qishloq joylarida zamonaviy ta'lim muassasalari yo'q, tibbiy xizmat sifati past, ichimlik suvi yoki elektr energiyasi tizimi uzluksiz ishlaymaydi. Natijada, bu hududda yashayotganlar ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan o'sish imkonidan mahrum bo'ladi va kambag'allikdan chiqish yo'llarini topa olmaydi.

Kambag'allikning ijtimoiy-psixologik ta'siri ham o'ta chuqurdir. Doimiy iqtisodiy qiyinchiliklar insonda o'ziga ishonchni yo'qotadi, ijtimoiy faollikni pasaytiradi, umidsizlik va tushkunlik kayfiyatini yuzaga keltiradi. Bu esa insonning salomatligiga, ijtimoiy munosabatlariga va mehnat unumdorligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayrim hollarda kambag'allik natijasida yuzaga kelgan ruhiy bosim oilaviy zo'ravonlik, jinoyatchilik yoki o'z joniga qasd qilish holatlariga ham olib keladi. Bu esa ijtimoiy muhitni yanada beqarorlashtiradi va kambag'allik doirasini kengaytiradi. Shunday qilib, kambag'allik shaxsiy darajada bir muammo bo'lishdan chiqib, butun jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tizimli illatga aylanadi.

Davlatlar kambag'allikni kamaytirish uchun turli strategiyalar va siyosatlarni amalga oshiradi. Ular ichida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, kichik biznesni rivojlantirish, ijtimoiy himoya dasturlarini kuchaytirish, bepul ta'lim va tibbiy xizmatlar taqdim etish, subsidiyalar va grantlar ajratish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish kabi chora-tadbirlar mavjud. Jumladan, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash kambag'allikni kamaytirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Kichik biznes mahalliy darajada ish o'rinlari yaratadi, aholi daromadlarini oshiradi va o'z-o'zini band qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, ayollar va yoshlar uchun kichik biznes faoliyatlari orqali o'z mustaqil iqtisodiy hayotini qurish imkoniyati yaratiladi.

Kambag'allik muammosini hal qilishda xalqaro tashkilotlarning ham hissasi beqiyosdir. Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, BMT Taraqqiyot dasturi va boshqa tashkilotlar kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha ko'plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib boradi, moliyaviy va texnik yordam ajratadi, taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqishda davlatlarga ko'maklashadi. Ularning tavsiyalari orasida kambag'allikni ko'p qirrali yondashuv asosida hal qilish, ya'ni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, madaniy va ekologik omillarni ham inobatga olish zarurati ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, kambag'allik – bu faqat daromad yetishmovchiligi emas, balki ijtimoiy resurslardan foydalanish imkonining cheklanganligi, ta'lim va tibbiyotdan mahrumlik, ijtimoiy ajratilish, ruhiy va psixologik bosimlarni o'z ichiga olgan murakkab tizimli muammo hisoblanadi. Uning iqtisodiy asoslari ishlab chiqarish resurslariga teng kirish imkoniyati yo'qligi, ishsizlik, daromadlar taqsimotidagi nomutanosiblik bilan bog'liq bo'lsa, ijtimoiy asoslari esa ta'limga, sog'liqni saqlashga, axborotga kirish imkoniyatining cheklangani, ijtimoiy adolatning buzilishi bilan uzviy bog'liqdir. Kambag'allik muammosini

hal etish uchun kompleks, ko'p bosqichli, uzoq muddatli strategiyalar zarur bo'lib, bu jarayonda davlat, jamiyat va xalqaro hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Kambag'allikdan xoli barqaror jamiyat qurish uchun har bir fuqaroga iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan teng imkoniyatlar yaratish shart. Ana shundagina haqiqatda inklyuziv taraqqiyotga erishish mumkin bo'ladi.

### **References**

1. Miah, M. T., Lakner, Z., & Fekete-Farkas, M. (2024). Addressing poverty through social entrepreneurship for sustainable development: A comprehensive bibliometric analysis. *Administrative Sciences*, 14(1), 16. <https://doi.org/10.3390/admsci14010016>
2. Morris, M. H., Soleimanof, S., & Tucker, R. (2025). From poverty trap to commodity trap: entrepreneurship and well-being among the poor. *Small Business Economics*, April 8.
3. Fayzullayev, N., & Mayliyeva, S. (2023). Kambag'allikni qisqartirish maqsadida aholi daromadlarini oshirishda olib borilayotgan siyosatlar. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 3(12), 151–156.
4. Shavkatov, S. K. (2024). Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashning moliyalashtirish masalalari. *Kokand University Herald*, 13, 14.
5. Dupont, C., & Roy, D. (2024). Emergent poverty traps and inequality at multiple levels impedes social mobility. *arXiv*. <https://arxiv.org/abs/2412.17822>

## **ZO‘RAVONLIK – JAMIYATNING SUKUTDAGI FARYODIDIR.**

**Achilov Fazil Abdurashidovich**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi,  
Shayxontohur tumani, “Bog’-ko‘cha” MFY mahallada kompleks ijtimoiy xizmat  
ko‘rsatuvchi xodimi

O‘zbek oilasi azaldan mehr, muruvvat, sabr-toqat va o‘zaro hurmat asosida shakllangan. Ota – tayanch, ona – mehr maskani, farzandlar – nur va fayz deb e‘zozlangan. Ammo bugun ijtimoiy voqelikda ba‘zida bu qadriyatlar yo‘qolib, ularning o‘rnini ruhiy zo‘riqish, bosim va hatto tajovuzkorlik egallayotganini ko‘rmoqdamiz. Men, Shayxontohur tumanidagi Bog‘ ko‘cha mahallasida xizmat qiluvchi kompleks ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassis sifatida, har kuni insonlar bilan muloqotda bo‘lib, ularning og‘ir hayotiy holatlari, pinhoni muammolari va qo‘rquvlarini his qilaman. Afsuski, ularning aksariyatida oilaviy muhitdagi zo‘ravonlik eng og‘riqli mavzuga aylangan.

### **Zo‘ravonlikning ko‘rinmas ildizlari**

Zo‘ravonlik deganda ko‘pchilik faqat jismoniy tahdidni tushunadi. Ammo bu muammo ancha keng va murakkab. Ruhiy bosim, iqtisodiy qaramlik, ijtimoiy cheklovlar, ayollar va bolalarning shaxsiy erkinligini yo‘qotishi – bularning barchasi zo‘ravonlikning zamonaviy yuzlaridir. Ayolning ovozi o‘chirilgan, farzandning orzulari sindirilgan, otaning jahlini me‘yor deb qabul qilgan muhitda jamiyat taraqqiyotidan so‘z yuritish mushkul. Bugungi kunda turli xalqaro tashkilotlarning ma‘lumotlariga ko‘ra, ayollarning 30 foizi hayoti davomida kamida bir marta jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka uchraydi. O‘zbekistonda ham bu muammo mavjud emas deb bo‘lmaydi, afsuski. Biz mahallada har bir xonadonga borib, oilaviy muhit, bolalarning tarbiyasi, ayollar hayoti bilan qiziqamiz. Ayrim hollarda, qattiq nazorat, ayolning ishlashiga ruxsat berilmaslik, uni jamoatdan ajratish yoki bolalar bilan qo‘rqitish holatlari uchraydi. Bu — zo‘ravonlikning “yumshoq”, ammo chuqur shakllaridir.

### **Jamiyat javobi va kurash yo'llari**

Zo'ravonlikka qarshi kurash – bu faqat huquq-tartibot idoralari yoki ijtimoiy xodimlar ishi emas. Bu butun jamiyat, har bir mahalla faoli, har bir ota-ona, ustoz, hatto qo'shning vazifasidir.

Birinchi navbatda: Ayollar va bolalarning huquqiy savodxonligini oshirish; Maktab va OTMlarda zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan darslar va suhbatlar o'tkazish; Har bir mahallada ishonchli, sir saqlovchi psixolog va ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini kuchaytirish; Ayollarni iqtisodiy mustaqillikka olib chiqadigan kasb-hunar kurslari, kooperativlar tashkil etish – muhim omillardandir.

### **Yana jim qolmaslik kerak!**

Bugun biz jim qolsak, ertaga bu jimlik boshqalar hayotini barbod qilishi mumkin. Har birimiz ko'rgan, eshitgan va shubha qilgan holatga befarq bo'lmasligimiz zarur. Ko'mak so'rab kelgan insonni ayblamaslik, balki tinglab, qo'llab-quvvatlash – eng muhim insoniy qadriyatdir. Yodda tuting: ayol – jamiyat ustuni. U qulagan joyda jamiyat qulaydi. Bola – kelajak. U zo'ravonlikda ulg'aysa, jamiyat ham zo'ravon bo'ladi. Ota – poydevor. U mehrsiz bo'lsa, oilaning har bir toshi qulaydi.

Shayxontohur tumani Bog' ko'cha mahallasida faoliyat yuritayotgan ijtimoiy xodim sifatida, biz zo'ravonlikka qarshi kurashishda nafaqat qonun, balki qalb, mehr va ogohlik bilan yondashamiz. Har bir ayolga, bolaga, keksa otaxonga nisbatan hurmatli va xavfsiz muhit yaratish – bu bizning ijtimoiy burchimizdir. Agar bir insonni eshitish, tushunish, qo'llash orqali uning hayotini o'zgartira olsak, demak biz eng katta ijtimoiy xizmatni bajarganmiz.

<b>Zo'ravonlik turi</b>	<b>Asosiy sabablari</b>	<b>Ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodim tavsiyalari (yechimlar)</b>
<b>Jismoniy zo'ravonlik</b>	O'tmishda o'zi zo'ravonlikka uchraganlik, g'azabni boshqara olmaslik	Psixologik maslahatlar, oilaviy terapiyaga yo'naltirish, huquqiy choralar ko'rish

<b>Ruhiy zo‘ravonlik</b>	Doimiy tanqid, kamsitish, manipulyatsiya, o‘ziga ishonchsizlik	Ayol va farzandlarga ishonchli sharoit yaratish, ruhiy yordam, motivatsion mashg‘ulotlar
<b>Iqtisodiy zo‘ravonlik</b>	Moliyaviy nazorat, ayolni ishlatmaslik, daromadini tortib olish	Kasb-hunar o‘rgatish, "Ayollar daftari" orqali ko‘mak, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha maslahat
<b>Jinsiy zo‘ravonlik</b>	Nikohdagi roziliksiz aloqa, jinsiy majburlash, tahdid	Psixologik tiklanish, xavfsizlik choralarini ko‘rish, tegishli idoralarga xabar berish
<b>Axborot zo‘ravonligi</b>	Telefon, ijtimoiy tarmoqlardagi doimiy nazorat, yaqinlar bilan aloqani taqiqlash	Raqamli xavfsizlik bo‘yicha tushuntirish ishlari, ijtimoiy izolyatsiyani bartaraf etish

Zo‘ravonlik bugungi jamiyatda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda: ba’zida ochiq jismoniy kuch bilan, ba’zida esa ko‘zga ko‘rinmas, ammo yurakni ezguvchi ruhiy tazyiqlar shaklida. Har bir holatda bu illat oilaning ichki barqarorligini izdan chiqaradi, jamiyat sog‘lomligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy zo‘ravonlik – bu tanaga yetkazilgan shikast emas, balki inson sha’niga, qadr-qimmatiga qilingan tajovuzdir. Aksariyat hollarda bu holat shaxsning o‘zini tuta olmasligi, o‘tmishdagi salbiy tajribasi, oiladagi tarbiya usullarining zo‘ravonlikka yo‘l qo‘yuvchi omillari bilan bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, bolaligida o‘zi zo‘ravonlikka duch kelgan insonlar katta hayotda shu tajribani takrorlaydi. Ruhiy bosim esa insonni asta-sekinlik bilan ichkaridan yemiradi. Ayolga yoki farzandga nisbatan doimiy tanqid, kamsitish, uning fikrini mensimaslik, uning mehnatini qadrlamaslik – bular ham zo‘ravonlikning kuchsiz, ammo chuqur ildiz otgan shakllaridir. Afsuski, bu holatlar aksariyat hollarda zo‘ravonlik sifatida qabul qilinmaydi va shu sababli jamiyatda sezilmas tarzda ildiz otib boraveradi. Ayollar ko‘pincha o‘z hayotidagi bu holatni “taqdir”, “sabrdan boshqa chora yo‘q” deb baholaydi. Biroq bunday yondashuv zo‘ravonlikni to‘xtatmaydi, aksincha uni kuchaytiradi. Zo‘ravonlikning yana bir xavfli ko‘rinishi bu – iqtisodiy qaramlikdir. Ayolning ishlashiga ruxsat bermaslik, daromadini tortib olish, unga moddiy yordamni doimiy nazorat ostida berish orqali shaxsiy erkinlik to‘liq cheklanadi. Iqtisodiy zo‘ravonlik orqali ayol o‘z mustaqilligini yo‘qotadi va bu holat ruhiy va jismoniy zo‘ravonlikka ham yo‘l ochadi. Ayollarning moliyaviy savodxonligi pastligi, kasb-hunarsizligi, o‘ziga ishonchsizligi bunga

zamin hozirlaydi. Yana bir yashirin zo'ravonlik shakli bu – jinsiy zo'ravonlikdir. Aksar hollarda nikoh doirasida amalga oshgan jinsiy zo'ravonlik holatlari jamiyat tomonidan tan olinmaydi. Ammo ayolning roziligisiz, tahdid orqali amalga oshirilgan har qanday jinsiy aloqa — bu zo'ravonlikdir. Bu esa nafaqat jismoniy, balki psixologik jarohatni ham qoldiradi. Ayolning huquqlarini anglash va o'ziga bo'lgan ishonchini tiklash uchun jamiyatda bu mavzuni ochiq muhokama qilish zarur. Zamonaviy texnologiyalar davrida esa zo'ravonlik axborot maydoniga ham o'z soyasini tashlamoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda er-xotin bir-birining shaxsiy makoniga tajovuz qilishi, telefon orqali izlash, xabarlarga javob bermasa tahdid qilish, insonni virtual dunyoda ham izolyatsiyalash holatlari ko'paymoqda. Bunday axborot zo'ravonligi ham jamiyat e'tiboridan chetda qolmasligi kerak. Shu bois, biz – ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar, bu muammoga faqat huquqiy nuqtai nazardan emas, balki ma'naviy va ruhiy jihatdan yondashishga chaqiramiz. Har bir insonni eshitish, tushunish, qo'llab-quvvatlash orqali zo'ravonlikka qarshi kurashishimiz, ayol va bolalarga xavfsiz hayot makonini yaratishimiz kerak. Zero, bu – nafaqat kasbiy burchimiz, balki insoniy vijdonimiz oldidagi mas'uliyatimizdir.

УДК: 617.55-089.844/616-056.5+616-08-039.71

## УСТРОЙСТВО ДЛЯ ЭКСПОЗИЦИИ ЛАПАРОСКОПИЧЕСКОГО ДОСТУПА У ПАЦИЕНТОВ С ОЖИРЕНИЕМ

*Хамдамов Илхомжон Бахтиёрвич e-mail: [ilxomjon\\_xamdakov@bsmi.uz](mailto:ilxomjon_xamdakov@bsmi.uz)*

*<https://orcid.org/0000-0001-5104-8571>*

Бухарский государственный медицинский институт

**Аннотация.** Основной причиной неудовлетворительных исходов применения стандартного лапароскопического минигастрошунтирования заключается не в ошибочности самого метода, а в отсутствии индивидуализации параметров вмешательства в зависимости от анатомических и метаболических характеристик пациента.

**Ключевые слова:** бариатрия, лапароскопическое минигастрошунтирование, метаболический синдром.

**Актуальность.** Бариатрическая хирургия (хирургия ожирения) возникла в середине XX века, когда под этим термином объединили различные виды оперативных вмешательств, направленные на снижение массы тела путем формирования тонкокишечных обходных анастомозов (1,17,18,19). Бариатрическая хирургия с того периода времени получила интенсивное развитие и за этот период предложено более 40 видов бариатрических оперативных вмешательств. К 90-ым годам XX века «лапароскопическая революция в хирургии» привела к быстрому росту и широкому распространению малоинвазивных бариатрических операций (2,20,21,22,23). Энтузиазм по бариатрическим операциям в мире обусловлен доказанной долгосрочной эффективностью хирургического лечения пациентов, что приводит к значительному повышению продолжительности жизни.

Лапароскопическое минигастрошунтирование (ЛМГШ) на сегодняшний день считается одной из наиболее эффективных операций в лечении больных с морбидным

ожирением, выраженной инсулинорезистентностью и сахарным диабетом 2 типа (СД2Т), (3,24,25,26,27) Сочетание умеренной рестрикции с гормональным эффектом, обусловленным исключением дуоденального и проксимального тощекишечного сегмента, обеспечивает быстрое снижение массы тела, улучшение показателей гликемического контроля и возможность отказа от инсулинотерапии (1,3,5,15). Все это делает ЛМГШ предпочтительным методом вмешательства у больных с тяжелыми метаболическими нарушениями (10,13,14).

Тем не менее, клиническая практика показывает, что и при применении ЛМГШ возможны ситуации, когда ожидаемый метаболический эффект оказывается неполным, а в ряде случаев сопровождается неблагоприятными последствиями. Основной причиной таких исходов является отсутствие стандартизации при выборе длины желудочного резервуара и обходной петли (2,4,6,8,16). В результате этого у части больных развивается выраженная мальабсорбция, сопровождающаяся нарушением стула, гипопротеинемией и снижением качества жизни, тогда как у других эффект оказывается слабо выраженным из-за недостаточного гормонального ответа (7,9,11,12).

**Цель исследования:** проведение анализа клинико-метаболических исходов у пациентов, перенесших традиционное ЛМГШ по стандартной методике, без учета анатомических и метаболических различий.

**Материал и методы исследования:** Следует отметить, что в ряде международных источников в качестве стандартной длины желудочного резервуара при минигастрошунтировании указывается 10-15 см. Однако в рамках настоящего исследования за основу принята длина 20 см. Это решение было обусловлено особенностями морфологии желудка у пациентов с морбидным ожирением и МС, а также стремлением обеспечить анатомическую устойчивость резервуара.

Все вмешательства проводились без предварительной адаптации объема операции к морфометрическим или метаболическим особенностям пациента. Данный подход, хотя и отвечает техническим рекомендациям, не учитывает разнородность клинико-гормонального профиля пациентов с МС.

Контингент наблюдаемых характеризовался выраженной метаболической перегрузкой. Уровень HbA1c у всех пациентов превышал 8%, НОМА-IR -  $5,8 \pm 1,4$  ед.,

что отражает глубокую инсулинорезистентность и некомпенсированное течение СД2Т. Почти у  $\frac{2}{3}$  пациентов применялась инсулинотерапия, при этом средний уровень С-пептида (1,1 нг/мл) свидетельствовал о сниженной секреции инсулина и функциональном истощении  $\beta$ -клеток. Стаж заболевания превышал 6 лет, а это уже само по себе снижает вероятность достижения быстрой метаболической ремиссии без прицельной гормональной коррекции.

Следует отметить, что хотя признаки ГЭРБ в этой группе фиксировались только у 18,8% пациентов, они не служили основанием для коррекции хирургической тактики. Это отражает отсутствие четкого разграничения показаний и противопоказаний к применению шунтирования. Стандартизированный подход в виде «одна схема для всех» был применен нами без попытки соотнести анатомию желудка с выраженностью метаболических сдвигов. Именно такая методология и стала предметом анализа в настоящем параграфе диссертационной работы, поскольку в ряде случаев привела к неустойчивому эффекту или неблагоприятным функциональным последствиям.

В дополнение к этому, в рамках настоящего исследования в качестве стандартной конфигурации ЛМГШ была принята длина желудочного резервуара 20 см при обходной петле 200 см. Такая схема соответствует распространенной клинической практике, принятой в ряде региональных центров бариатрической хирургии, включая Узбекистан. Удлиненный резервуар рассматривается как анатомически устойчивый вариант, обеспечивающий адекватный объем пассажа и снижающий риск перегибов и функционального стеноза при выраженной гастроптозе.

В отличие от международных подходов, где стандартом чаще выступает длина резервуара 10-12 см, в представленной группе (32 больных) пациентов 20 см использовались как исходная точка оценки эффективности, что особенно важно при наличии массивного желудка и высоких показателей ИМТ. Эта конфигурация легла в основу последующего анализа динамики клинических и метаболических показателей.

**Результаты и их обсуждение:** Общая тенденция к снижению массы тела и нормализации ряда метаболических показателей в течение первых двух месяцев после выполнения стандартного ЛМГШ. Так, уже на 15-е сутки послеоперационного периода отмечалось уменьшение массы тела в среднем на 7,3 кг, что составляло около 5,5% от

исходной. К концу второго месяца среднее снижение достигло 18,6 кг, или более 14%, при этом ИМТ снизился на 6,8 кг/м<sup>2</sup>. На первый взгляд такие результаты могут трактоваться как удовлетворительные, однако более глубокий анализ показывает ряд тревожных тенденций.

Уровень HbA1c снизился с 8,2% до 6,8%, а индекс инсулинорезистентности - с 5,8 до 4,1 ед. Однако даже к концу второго месяца средний НОМА-IR оставался выше нормы, а у ряда пациентов (будет показано ниже) эти значения практически не изменились. Отмена инсулинотерапии была возможна лишь у 34% больных, тогда как у остальных сохранялась потребность в постоянной фармакологической поддержке. Это может свидетельствовать о недостаточности гормонального ответа при использовании унифицированной схемы вмешательства без учета тяжести метаболических нарушений.

На фоне умеренного метаболического улучшения у части пациентов уже в ранние сроки появились признаки функциональной дестабилизации. Так, частота диареи к концу второго месяца достигла 22%, у 15% был зарегистрирован уровень альбумина <38 г/л, а каждый четвертый пациент отмечал общую слабость, выраженную утомляемость, эпизоды головокружения после еды. Эти жалобы не носили критический характер, но подчеркивали пограничное нутритивное состояние, которое может быть легко дестабилизировано при более выраженной мальабсорбции или несоблюдении режима питания.

Важно отметить, что ни один из параметров операции (длина резервуара, длина петли) не адаптировался под индивидуальные морфометрические данные. В целом можно отметить, что значительная часть метаболически тяжелых пациентов получила одинаковый хирургический объем, что, вероятно, привело к избыточному эффекту у одних и недостаточному эффекту - у других. Именно эти особенности стали основанием для дальнейшего анализа подгруппы пациентов с неблагоприятной динамикой.

Несмотря на устойчивое снижение массы тела (в среднем -19,2 кг к 12 месяцам), уровень HbA1c в течение года не опустился ниже 7,2%, а НОМА-IR лишь незначительно снизился. Ремиссия СД2Т достигнута менее чем у трети пациентов,

несмотря на проведенную операцию, что свидетельствует о недостаточной гормональной активности вмешательства при стандартных анатомических параметрах.

Особое внимание привлекает нутритивная составляющая. Средний уровень альбумина к концу года составил 35,6 г/л - на нижней границе нормы, а более чем у четверти пациентов сохранялась эпизодическая диарея и синдром мальабсорбции. Одновременно отмечается устойчивое снижение уровня витамина B12, несмотря на профилактические назначения, что указывает на недостаточную адаптацию объема обхода к индивидуальным потребностям.

Субъективная оценка самочувствия по шкале EQ-5D снизилась с 63 до 60 баллов, что свидетельствует об отсутствии значимого прироста качества жизни в течение года. Часто встречающиеся жалобы на слабость, лабильность стула и тревожность после еды стали дополнительным поводом для обращения к специалистам. Эти данные подчеркивают, что в данной группе пациентов именно отсутствие персонализации конфигурации шунта стало основной причиной нестабильного отдаленного результата.

Анализ случаев выполнения ЛМГШ в стандартной конфигурации у пациента с крайне выраженной инсулинорезистентностью, низким уровнем С-пептида и тяжелым течением СД2Т показал, что это привело к отсутствию ожидаемого метаболического ответа и к развитию нутритивной недостаточности. На фоне стандартной длины обходной петли и резервуара сформировался дисбаланс между рестриктивным и гормональным эффектом, что при отсутствии анатомической адаптации желудка привело к функциональной перегрузке. Ситуация подчеркивает необходимость персонализации конфигурации вмешательства на этапе планирования.

Анализ результатов применения традиционного ЛМГШ у пациентов с МС выявил наличие устойчивой клинической проблемы, связанной с недостаточной предсказуемостью метаболического и функционального эффекта вмешательства. Несмотря на ожидаемое снижение массы тела и частичную нормализацию гликемических показателей, в ряде случаев достигнутый результат не соответствовал целям бариатрической операции.

В раннем послеоперационном периоде большинство пациентов демонстрировали динамику, соответствующую техническим ожиданиям: потеря массы

тела, тенденция к снижению HbA1c, начало снижения дозы или отмены инсулинотерапии. Однако даже на этом этапе проявились начальные признаки функциональной нестабильности: учащение стула, признаки ранней мальабсорбции, нарастание жалоб на утомляемость. Эти сигналы зачастую расценивались как «переходные» и не получали должной интерпретации.

Таким образом, основная причина неудовлетворительных исходов применения стандартного ЛМГШ заключается не в ошибочности самого метода, а в отсутствии индивидуализации параметров вмешательства в зависимости от анатомических и метаболических характеристик пациента. Подход «одна длина резервуара и петли для всех» может быть эффективным у определенной подгруппы, но приводит к гипо- или гиперэффекту у других.

#### **Выводы:**

1. Для уменьшения риска возникновения спаечной кишечной непроходимости рекомендовано при операции регулируемого бандажирования желудка проведение соединительной трубки бандажной системы в верхнем этаже брюшной полости с выведением ее в эпигастрии. При операции продольной резекции желудка для профилактики послеоперационных вентральных грыж через троакарные отверстия на апоневрозе рекомендовано их ушивание с помощью специального устройства.
2. С целью профилактики слипедж-спидрома рекомендуется обязательная фиксация бандажного кольца при регулируемом бандажировании желудка серо-серозными швами.

#### **Литература:**

1. Абдурахманова Г.М., Юлдашев Ф.Х. Распространенность факторов риска метаболического синдрома среди населения Узбекистана // Вестник ТМА. – 2021. – №2. – С. 78–84
2. Залого А.А., Савельев В.С. Анализ неудач бариатрических вмешательств // Хирургия. – 2020. – №3. – С. 17–22
3. Оспанов О.Б., Елеуов Г., Фурсов А. и др. Лапароскопическое одноанастомозное гастрощунтирование с обертыванием и без обертывания фундуса исключенного

желудка: протокол рандомизированного контролируемого исследования (FundoRingOAGB) // Trials. – 2022. – Т. 23, №1. – С. 264.

4. Хитарьян А.Г., Межунц А.В. Бариатрическая хирургия: современные подходы к лечению ожирения // Ростовский государственный медицинский университет. – 2024. – 32 с.

5.Khamdamov I.B. Improving tactical approaches in the treatment of hernias of the anterior abdominal wall in women of fertile age // New day in medicine. Bukhara, 2022.-№10(48)- P. 338-342.

6.Khamdamov I.B. Morphofunctional features of the abdominal press in women of reproductive age // New day in medicine. Bukhara, 2022.-№3(41)- P. 223-227.

7.Khamdamova M.T., Akramova D. E. Genetic aspects of genital prolapse in women of reproductive age // New day in medicine. Bukhara, 2023. - No. 5 (55). - P. 638-643.

8.Khamdamova M.T., Akramova D. E. Genetic aspects of genital prolapse in women of reproductive age // New day in medicine. Bukhara, 2023. - No. 5 (55). - P. 638-643.

9.Khamdamova M.T., Teshayev Sh.Zh., Hikmatova M.F. Morphological changes of the thymus and spleen in renal failure in rats and correction with pomegranate seed oil // New day in medicine. Bukhara, 2024. - N. 3(65). - P. 167-187.

10.Khamdamova M.T., Khasanova M.T. Various mechanisms of pathogenesis of endometrial hyperplasia in postmenopausal women (literature review) // New day in medicine. Bukhara. 2023. - No. 8 (58). - P. 103-107.

11.Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The state of nitric oxide in blood serum in patients with cutaneous leishmaniasis // New day in medicine. Bukhara, 2023. - No. 5 (55). - P. 638-643.

12.Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The value of ceruloplasmin and copper in blood serum in women wearing copper-containing intrauterine device // New day in medicine. Bukhara, 2023. - No. 6 (56). - P. 2-7.

13.Khamdamov I.B. Improving tactical approaches in the treatment of hernias of the anterior abdominal wall in women of fertile age // New day in medicine. Bukhara, 2022.- №10(48)- P. 338-342.

14.Khamdamov I.B. Morphofunctional features of the abdominal press in women of reproductive age // New day in medicine. Bukhara, 2022.-№3(41)- P. 223-227.

15. Khamdamova M.T., Akramova D. E. Immediate and long-term results of surgical treatment of genital prolapse in elderly women // New day in medicine. Bukhara, 2025. - N3 (77). - P. 201-206.

16. Khamdamova M. T., Khasanova M.T. Genetic mechanisms of development of endometrial hyperplastic processes in women in menopacteric age // New day in medicine. Bukhara, 2025. - N3 (77). - P. 207-211.

17. Khamdamova M. T., Umidova N. N. Genetic factors of genital endometriosis // New day in medicine. Bukhara, 2025. – N4 (78). - P. 82-87.

18. Яшков Ю.И., Седлецкий Ю.И., Василевский Д.И., Цветков Б.Ю., Кричмар А.М. Повторные вмешательства в бариатрической хирургии // Ученые записки СПбГМУ им. акад. И.П. Павлова. – 2019. – Т. 26, №4. – С. 16–20.

19.Khamdamov A.B. Current Information on the Prevalence, Diagnostic Criteria and Clinical Presentation of Metabolic Syndrome// Journal of Education & Scientific Medicine. Tashkent, 2024. - № 6(1) . - P. 8-14.

20.Khakimov M.Sh., Khamdamov A.B. Efficacy of Bariatric Surgery in the Treatment of Patients with Metabolic Syndrome in Association with Gastroesophageal Reflux Disease// Journal of Education & Scientific Medicine. Tashkent, 2024. - № 6(1) . - P. 35-42.

21.Khakimov M.Sh., Khamdamov A.B., Khamdamov I.B. The Effectiveness of Modified Methods of Bariatric Surgery in Patients with Metabolic Syndrome on the Background of Gastroesophageal Reflux Disease// American Journal of Medicine and Medical Sciences 2025, 15(1): - P. 56-61. DOI: 10.5923/j.ajmms.20251501.10.

22.Хамдамов А.Б., Хакимов М.Ш., Хамдамов И.Б. Эффективность модифицированных способов бариатрических операций у больных с метаболическим синдромом на фоне гастро-эзофагеальной рефлюксной болезни // Проблемы биологии и медицины 2025, № 1 (158).P 119-124.

- 23.Koliaki C., Liatis S., Kokkinos A. et al. Principles of personalized management of obesity and metabolic syndrome // *Metabolism.* – 2018. – Vol. 92. – P. 50–61. DOI: 10.1016/j.metabol.2018.11.001.
- 24.Hamdammov A.B., Hamdamov I.B. Improved method of bariatric surgery for patients with metabolic syndrome due to gastro-esophageal reflux disease // *Tibbiyotda yangi kun.* - Buxoro, 2024. - № 12 (74). - C. 746-751.
- 25.Khamdamov A.B. Current Information on the Prevalence, Diagnostic Criteria and Clinical Presentation of Metabolic Syndrome// *Journal of Education & Scientific Medicine.* Tashkent, 2024. - № 6(1) . - P. 8-14.
- 26.Khamdamov A.B. Excess body weight as a factor in the development of gastroesophageal reflux disease // *International Conference On Interdisciplinary science.* Volume 01, Issue 11, 2024. 31.10.2024 San Fransisco, USA- P.169-175.
- 27.Khamdamov A.B. Laparoscopic correction of reflux esophagitis. International conference on multidisciplinary science. Volume-2, Issue-10. 31.10.2024. India. P.92-97 .

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KICHIK KORXONALARDA  
MEHNATNI ME'YORLASHTIRISH TIZIMINING TAKOMILLASHUVI  
(SANOAT-4.0 ASOSIDA)**

**Abduxamidov Abduraxmon Abdulatif o'g'li**

Qo'qon universiteti mustaqil izlanuvchisi

[a.abduhamidov@kokanduni.uz](mailto:a.abduhamidov@kokanduni.uz)

**Annotatsiya**

Mazkur tadqiqotda raqamli transformatsiya sharoitida kichik ishlab chiqarish korxonalarida mehnatni me'yorlashtirish tizimining rivojlanish istiqbollari, muammolari va takomillashuv yo'nalishlari o'rganiladi. Sanoat 4.0 konsepsiyasi doirasida avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, IoT (Internet of Things), raqamli sensorlar va Big Data texnologiyalari asosida mehnat operatsiyalarini aniqlashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda mehnatni me'yorlashtirishning an'anaviy shakllari va raqamli yechimlar o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida kichik korxonalarda samarali mehnat boshqaruv tizimini shakllantirish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Sanoat 4.0, raqamli transformatsiya, mehnatni me'yorlashtirish, kichik korxonalar, avtomatlashtirish, IoT, sun'iy intellekt, ishlab chiqarish samaradorligi, Big Data, ERP tizimlari, raqamli me'yorlashtirish, mehnat unumdorligi.

**Kirish**

XXI asr sanoat inqilobining yangi bosqichi – Sanoat 4.0 konsepsiyasi asosida raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayonlariga chuqur kirib kelishi natijasida korxonalarda ishlab chiqarishni boshqarish tamoyillari tubdan o'zgarib bormoqda. Bu holat, ayniqsa, kichik ishlab chiqarish subyektlari uchun ham o'z faoliyatlarini zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqishni, xususan mehnatni me'yorlashtirish tizimlarini raqamli yechimlar bilan uyg'unlashtirishni talab qilmoqda.

An'anaviy me'yorlashtirish usullari – vaqt, xizmat ko'rsatish va ish hajmi me'yorlarini oddiy kuzatuv va o'lchovlar asosida belgilashga asoslangan bo'lib, ular hozirgi texnologik rivojlanish darajasiga to'laqonli javob bera olmaydi. Ayni paytda Sanoat 4.0 texnologiyalari – sensorlar, real vaqt monitoringi, sun'iy intellekt, robotlashtirilgan tizimlar mehnat

operatsiyalarining aniq, tezkor va moslashuvchan tarzda me'yorlashtirilishini ta'minlash imkonini bermoqda.

Shu bois, tadqiqotda raqamli transformatsiya sharoitida kichik korxonalarda mehnatni me'yorlashtirish tizimining qay tarzda takomillashishi, qanday zamonaviy vosita va usullar yordamida mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkinligi chuqur tahlil qilinadi.

Mehnatni me'yorlashtirish insoniyat taraqqiyotining sanoatga oid har bir bosqichida o'ziga xos shaklda rivojlanib kelgan. Bu tizim dastlab mehnat harakatlarini boshqarishning amaliy tajribalariga tayanar ekan, sanoat inqiloblari natijasida texnologik yuksalish bilan birga, ilmiy asoslangan va tizimli yondashuvlarga ega bo'ldi. Har bir sanoat bosqichi mehnatni me'yorlashtirishning shakli, metrologiyasi va maqsadida sezilarli farqlar bilan tavsiflanadi.

Sanoat 1.0 davrida, ya'ni mexanik ishlab chiqarish paydo bo'lgan ilk bosqichda, mehnatni me'yorlashtirish oddiy kuzatuv, shaxsiy tajriba va rahbarlar sezgisi asosida amalga oshirilgan. Bu davrda ish vaqti asosan tajribaviy yo'l bilan, ishchilar faolligi esa oddiy nazorat orqali baholangan(1-jadval)

**1-jadval**

**Sanoat inqiloblari bosqichida mehnatni me'yorlashtirish evolutsiyasi<sup>1</sup>**

<b>Sanoat inqiloblari</b>	<b>Mehnatni me'yorlashtirish xususiyati</b>	<b>Asosiy usullar</b>
Sanoat 1.0 XVIII asr oxiri – XIX asr	Kuzatuvga asoslangan, tajribaviy yo'l bilan	Oddiy vaqt hisoblari, ustaxona tajribasi
Sanoat 2.0 XIX asr oxiri – XX asr boshi	Ilmiy boshqaruv asosida me'yorlash	Vaqt tahlili, ish bo'laklariga ajratish, stop-soat
Sanoat 3.0 XX asr o'rtalari – XXI asr boshlarigacha	Dasturiy asoslangan, statistik yondashuvlar bilan	Kompyuterli vaqt o'lchovlari, Excel, Access, MTM, MODAPTS

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Sanoat 4.0 XXI asrning boshidan hozirga qadar	Raqamli, moslashuvchan, real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan me'yorlashtirish	Sensorli o'lchovlar, algoritmik tahlil, ERP, MES, Digital Twin
---	--	--

Sanoat 2.0 bosqichi elektr energiyasining keng joriy etilishi va konveyer tizimining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, bu davrda F. Teylor, G. Emerson, G. Gantt kabi ilmiy boshqaruv vakillarining nazariyalari asosida ilmiy me'yorlashtirish uslublari paydo bo'lgan. Mehnat harakatlari tahlili, vaqt o'lchash, ish elementlariga bo'lish singari tamoyillar keng qo'llanilgan. Sanoat 3.0 davrida avtomatlashtirish va kompyuter texnologiyalari joriy etilishi bilan bir qatorda mehnatni me'yorlashtirishda ham elektron dasturlar, vaqtni tahlil qilish modullari va statistik algoritmlardan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi. Tizim real vaqt monitoringiga asta-sekin yaqinlashgan.

Sanoat 4.0 bosqichida esa raqamli texnologiyalar, IoT, Big Data va sun'iy intellekt asosida mehnatni real vaqt rejimida avtomatik qayd qilish, modellashtirish va optimallashtirish imkoniyati mavjud bo'ldi. Mehnat me'yorlari ishchi holati, texnologik o'zgaruvchilar va tashqi omillar asosida moslashuvchan algoritmik tizimlar orqali belgilanmoqda.

Kichik ishlab chiqarish korxonalari, ayniqsa kichik ishlab chiqarish korxonalari uchun mehnatni me'yorlashtirish nafaqat ishlab chiqarish jarayonini muvofiqlashtirish vositasi, balki resurslardan foydalanish samaradorligini oshiruvchi asosiy boshqaruv mexanizmidir. An'anaviy yondashuvda ushbu korxonalarda mehnat me'yorlari odatda tajriba asosida, kuzatishlar orqali yoki boshqa korxonalaridagi o'rtacha ko'rsatkichlarga suyanib belgilanadi. Bunday yondashuv kichik korxonalarda resurslarning cheklanganligi, xodimlar almashuvchanligi va buyurtmalar xilma-xilligini hisobga olmasligi sababli yetarlicha samarador emas.

Avtomatlashtirilgan mehnatni me'yorlashtirish tizimlari aynan kichik ishlab chiqarish korxonalarining mavjud muammolariga javoban samarali yechim bo'la oladi. Bu yondashuv dastlabki investitsiyaviy xarajatlarga ega bo'lsa-da, uzoq muddatda mehnat unumdorligi, sifat va tannarxni boshqarishdagi yutuqlar orqali o'zini oqlaydi. Algoritmik tizimlar mehnat harakatlarini, ish sikllarini va vaqt sarfini avtomatik tahlil qilgan holda real vaqt rejimida eng maqbul me'yorlarni taklif etadi. Masalan, bir xil modeldagi mahsulot turli ishchilarda turlicha

vaqt talab etadi. An'anaviy me'yorlash bunday individual farqlarni hisobga olmaydi, algoritmik tizimlar esa — xodimga moslashtirilgan dinamik me'yorlarni shakllantiradi.

Kichik biznes sharoitida bu avtomatlashtirishni amalga oshirish uchun yuqori darajadagi kompleks ERP tizimlari shart emas. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan mobil ilovalar, bulutli xizmatlar (masalan, Timely, Clockify, WorkStudy+ kabi yengil platformalar) orqali xodim ish harakatlarini aniqlash, tahlil qilish va samaradorlikni baholash mumkin. Bunday tizimlar, ayniqsa kichik tikuvchilik sexlarida, vaqt sarfini tahlil qilish, tikuv operatsiyalarini normallashtirish va buyurtma bo'yicha vaqt rejasini tuzishda qo'l keladi.

Avtomatlashtirilgan me'yorlashtirish yondashuvida yana bir ilg'or jihat bu — mehnatning fazoviy tashkil etilishini tahlil qilishdir. Kichik sexlarda ish joyining noqulay joylashuvi, uskunalar o'rtasidagi harakat yo'nalishlarining optimal bo'lmasligi mehnat harakatlari va ish vaqtini sezilarli darajada oshiradi. IoT asosidagi oddiy sensor tizimlar yordamida ishchi harakat yo'nalishlari va ortiqcha harakatlar aniqlanadi, bu esa ish joyini ergonomik jihatdan qayta loyihalash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Yana bir muhim jihat — normativ rekursivlik prinsipidir. Bu prinsipga ko'ra, ishlab chiqarishdan olingan har bir yangi ma'lumot keyingi me'yorni aniqlashda asosiy rol o'ynaydi. Ya'ni, me'yorlar doimiy emas, balki o'zgaruvchan, ishlab chiqarish muhiti, buyurtmalar hajmi va xodim salohiyatiga mos holda avtomatik tarzda yangilanadi. Bu tizim ayniqsa moslashuvchanlikni talab qiladigan kichik korxonalar uchun juda mos keladi, chunki ular ko'pincha turli xil, qisqa muddatli va o'zgaruvchan dizaynga ega buyurtmalar bilan ishlaydi.

Tadqiqot yakunida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Raqamli transformatsiya sharoitida kichik ishlab chiqarish korxonalarida mehnatni me'yorlashtirish jarayonlari an'anaviy yondashuvlardan tubdan farq qiladi. Endilikda mehnat me'yorlarini belgilash va boshqarish jarayonlari inson omilidan ko'ra raqamli monitoring, real vaqtli axborot oqimlari va avtomatik tahlil algoritmlari asosida olib borilmoqda. Bu esa inson xatolari, sub'ektiv yondashuv va eskirgan normativlarga tayanish holatlarini minimallashtiradi.

Sanoat 4.0 texnologiyalari — IoT qurilmalari, RFID tizimlari, Big Data analitikasi, ERP platformalari va sun'iy intellekt asosidagi mehnat tahlili vositalari — kichik korxonalarda mehnat operatsiyalarini aniq me'yorlash, ish joylarini optimallashtirish, mehnat yuklamasini

teng taqsimlash va ishchilarning real samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa nafaqat ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi, balki ishchilarning motivatsiyasini, ish vaqtining to'g'ri taqsimlanishini, ishlab chiqarish tannarxining kamayishini ham ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Kichik ishlab chiqarish korxonalarida Sanoat 4.0 texnologiyalariga mos mehnatni raqamli me'yorlashtirish tizimlarini joriy qilish bo'yicha alohida yo'riqnomalar va metodikalar ishlab chiqilishi kerak.

2. ERP tizimlar ichida mehnat me'yorlashtirish modullarini joriy qilish orqali vaqt, xizmat va ish hajmi me'yorlarini real vaqt monitoringi asosida yangilab borish tizimi yo'lga qo'yilishi lozim.

3. Ish joylariga IoT sensorlarini o'rnatish, har bir ish harakatining davomiyligini, zichligini va energiya sarfini kuzatish orqali aniq me'yorlashtirish ma'lumotlar bazasi shakllantirilishi zarur.

4. Mehnatni me'yorlashtirish sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish dasturlari tashkil etilishi lozim.

5. Davlat tomonidan kichik korxonalarni raqamli transformatsiyaga o'tishda moliyaviy va metodik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilishi, ayniqsa, yengil sanoat tarmog'ida pilot loyihalar asosida sinovdan o'tkazilishi lozim.

6.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Schwab, K. *The Fourth Industrial Revolution*. – World Economic Forum, 2017.

2. Ergashev Q.X. *Tadbirkorlik asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.

3. G'ofurov M.M. *Mehnat iqtisodiyoti*. – Toshkent: IQTISOD, 2020.

4. Gusev V.E. *Upravlenie proizvodstvom v usloviyakh tsifrovoy ekonomiki*. – Moskva: INFRA-M, 2021.

5. ILO (International Labour Organization). *Digitalization and the Future of Work*. – Geneva, 2020.

6. Sulstonova N.A. *Yengil sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va me'yorlashtirish*. – Toshkent: O'quv qo'llanma, 2018.

7. Deloitte Insights. *Smart factories and the future of manufacturing*. – 2020.

8. Uztextile Association. *Yengil sanoatda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha tavsiyalar.* – Toshkent, 2022.

9. Fayziyev O.S. *Mehnat unumdorligini oshirish va me‘yorlashtirish tizimlari.* – Toshkent: Ilm ziyo, 2019.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi PQ-294-son qarori “Raqamli iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

## ONIMLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN ANTROPOIDEONIMLAR VA ULARNING MADANIY AHAMIYATI

**Zumradxon Jonbo'tayeva,**  
Turon Xalqaro Universiteti  
filologiya kafedrası o'qituvchisi  
[zumradxonjonbotayeva@gmail.com](mailto:zumradxonjonbotayeva@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada onomastik tizimda antroponimlar asosida shakllangan ideonimlar — antropoideonimlarning madaniy va lingvistik ahamiyati yoritiladi. Ismlarning xalq madaniyati, diniy e'tiqodlari va tarixiy xotira bilan bog'liqligi asosida antropoideonimlarning shakllanishi va ularning jamiyatdagi ideologik o'zgarishlarga moslashuvi tahlil etiladi. Apotropeik nomlar, tabiat va hayvonot olamiga oid nomlar misolida ideonimlarning turli manbalardan shakllanishi ko'rsatib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** antroponim, ideonim, antropoideonim, apotropeik nomlar, lingvomadaniyat, eponimik jarayon, ismlar madaniyati.*

## АНТРОПОИДОНИМЫ, ОБРАЗОВАННЫЕ НА ОСНОВЕ ОНИМОВ, И ИХ КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

**Зумрадхон Джонбутаева,**  
преподаватель кафедры филологии  
Международного университета «Туран»  
[zumradxonjonbotayeva@gmail.com](mailto:zumradxonjonbotayeva@gmail.com)

***Annotatsiya:** В данной статье рассматривается культурное и лингвистическое значение антропоидеонимов — идеонимов, образованных на основе антропонимов в ономастической системе. Анализируется их связь с народной культурой, религиозными верованиями и исторической памятью. Особое внимание уделено*

апотропейным именам, а также именам, связанным с природой и животным миром, как источникам формирования идеонимов.

**Ключевые слова:** антропоним, идеоним, антропоидеоним, апотропейные имена, лингвокультура, эпонимический процесс, культура имен.

## ANTHROPOIDEONYMS FORMED ON THE BASIS OF ONIMS AND THEIR CULTURAL SIGNIFICANCE

**Zumradkhan Djonbytaeva,**  
prepodavatel kafedry filologii  
Mejdunarodnogo University "Turan"  
[zumradkhonjonbotayeva@gmail.com](mailto:zumradkhonjonbotayeva@gmail.com)

**Abstract:** *This article explores the cultural and linguistic significance of anthropoideonyms—ideonyms formed from anthroponyms within the onomastic system. It analyzes the formation of such names in relation to national culture, religious beliefs, and historical memory. Special attention is given to apotropaic names and names derived from nature and the animal world as sources for ideonym creation.*

**Keywords:** *anthroponym, ideonym, anthropoideonym, apotropaic names, linguistic culture, eponymic process, name culture.*

Ideonimlarning nomlanishida eponimik jarayon, ya'ni bir onimdan boshqasiga o'tish hodisasi keng qo'llanadi. Shu nuqtai nazardan ideonimlarning boshqa turdagi onomastik nomlar bilan aloqadorligi xarakterli xususiyat hisoblanadi. Biz bu holatni zamonaviy tilshunoslikdagi yangi tendensiya asosida antropoideonim, toponoideonim, kosmoidenim, teoideonim, gidroideonim, fitoideonim, zooideonim kabi tushunchalar asosida farqlash mumkinligi bilan izohlashni ma'qul ko'rdik.

**Antropoideonimlar** antroponimlar asosida shakllangan ideonimlardir. Tabiiyki, ismlar xalq milliy madaniyatining muhim belgisi hisoblanadi. Shuning uchun ism, familiya,

taxallus, kunya, laqab kabi turli darajadagi antroponimlar bilan bog'liq ideonimlar ko'p uchraydi.

V.I.Suprun onomastik nomlar tizimida antroponimlar yetakchi mavqega ega ekanligini ta'kidlaydi. "Yadro-periferik munosabatlarning onomastik kontinuumida antroponimlar markaziy o'rinni egallaydi. Onomastikaning butun mohiyati antroponimikada ifodalanadi: shaxs nomi barcha semantik, stilistik, hosilaviy, distributiv-mos keluvchi imkoniyatlar va ularning kontekstda reallashuvini o'z ichiga oladi, kommunikativ va pragmatik presuppozisiyalarni nozik aks ettiradi, etnojamoaning yorqin milliy va madaniy ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi." [1] Ayniqsa, xalq hayotida chuqur iz qoldirgan mashhur shaxslarning nomlari asosidagi ideonimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, *Imom al-Buxoriy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi* yoki "*Ulug' mutasavvuf Shayx Najmiddin Kubro*" (bibliografik qo'llanma) kabi nomlar diniy va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, xalqning ma'naviy dunyosini ifodalaydi.

"Milliy qadriyatimizga aylangan islom dini g'oyalari va ko'rsatmalari millatimizning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o'tmishi, kelajagi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlar, an'analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqalar bilan uzviy bog'langan. U milliy qadriyatlarimiz bilan xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo'ldi, o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qildi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta'minlovchi qadriyatlar – yagona e'tiqodlilik, qarindoshlik, madaniy-ma'naviy yaqinlik, o'tmish va ma'naviy meros, ona yurt tuyg'usi va boshqalar barqaror hisoblanadi." [2]

"*Temur va Temuriylar saltanati*" (risola, A.Muhammadjonov, M.Aminov), "*Amir Temur va Bibixonim*" (tasviriy san'at asari), "*Navoiy "Xamsa"si*"(maqola nomi), "*Jaloliddin Manguberdi*" (orden) kabi nomlar esa tarixiy shaxslarga nisbatan qo'yilib, milliy g'urur va o'zlikni ifodalaydi. *Amir Temur* shaxsiyati orqali "buyuk rahbar" va "milliy birlik" ramzlari orqali shakllangan ideonimlar faol qo'llanadi. *Jaloliddin Manguberdi* nomi ham milliy istiqloq, erk va ozodlik, mustaqillik ramzi sifatida ideonimlarning shakllanishiga asos bo'la oladi.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Zulfiya nomidagi*

*Davlat mukofoti* sohibalarining ibratli faoliyati, ularning noyob iste'dodi va erishgan yutuqlarini keng yoritib borish tavsiya etilsin .[3]

Zulfiya nomidagi davlat mukofoti shoira Zulfiyaxonim nomiga asosan ta'sis etilgan bo'lib, "...ta'lim, fan, adabiyot, madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari sohalari va jamoatchilik faoliyatida alohida yutuqlarga erishgan o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan iqtidorli xotin-qizlarga beriladi". Demak, mukofotni nomlashda o'z davrining eng faol ayol ijodkori hisoblangan, O'zbekiston va Xalqaro miqyosda tan olingan yuksak iste'dod sohibasi Zulfiyaxonim ideali ramziy ma'noda etalon qilib olingan bo'lib, bugungi davrning ilg'or, faol va o'z sohasida ijodkor sanalgan xotin-qizlarni rag'batlantirishga qaratilgan.

Shuni ham aytib o'tish joizki, tilning ijtimoiyligi negizida lingvomadaniy kontekstda antropoidonimlarning funkcionalligi jamiyatning tarixiy o'zgarishlariga moslashadi. Masalan, sovet davrida hukmron mafkura ta'sirida "*Lenin*" (orden nomi), *Ulug' Oktyabr inqilobi kuni* kabi nomlar ideologik ma'noga ega bo'lgan. O'zbek xalqi o'z mustaqilligiga erishgandan keyin bunday mafkuraviy zo'ravonlik belgilariga barham berildi. Masalan, E.Begmatov antroponimlar doirasida islomiy tushuncha va qadriyatlar asosidagi nomlarning diniy-ma'naviy tabiati batafsil tahlil qilgan. [4]Teonimlarning antroponimlarga o'tish jarayonida avval aytganimizdek, antropoteonimlar xosil bo'ladi.

Antropeik nomlar (yunoncha "apotropaios"[5]– "yovuzlikdan himoyalovchi") – bu ma'lum bir shaxsni yovuz kuchlardan himoya qilish, yomon ko'zdan yoki baxtsizlikdan himoya qilish maqsadida tanlangan ismlar yoki nomlar bo'lib, ko'pincha xalq e'tiqodi, diniy-axloqiy qarashlar va urf-odatlar bilan bog'liq. X.Allamuratova antropeik nomlarni maxsus o'rgangan. Uning fikricha, "Apotropeya dastlab etnografik tushuncha hisoblangan. «Etnografik tushunchalar va atamalar kodeksi»da apotropeyaga «inson, hayvonlar, o'simliklar, narsalar va binolarni yovuz kuchlarning zararli harakatlaridan himoya qiladigan narsa, belgi, harakat yoki holat, so'z, ibora, tovush, hid (ruhlar, xudolar, yovuz ko'z, sehrgarlik)", deya izoh beriladi. Qadimgi yunonchadan so'zma-so'z tarjima qilinganda, «baxtsizlikning oldini olish», «yovuzlikni rad etish» degan ma'nolarni anglatadi. Qadimgi yunon madaniyatida turli xil qo'rqinchli tasvirlar (sherlar, gorgonlar, griffinlar, falluslar va b.) ko'rinishida namoyon bo'lgan yovuz ruhlarni odamlardan haydab chiqaradigan, uylarini, ekinlari va hayvonlarini himoya qiladigan afsonaviy narsalar apotropeyonlar deb nomlangan" [6]

Yuqorida tilga olingan omillarni ismlar vositasida ifodalashning mohiyati – bolalarni kasalliklar va erta o'limdan saqlashdan iborat. Kuzatishlarimizga ko'ra, tasviriy ismlar qadimiy antroponimik namunalar bo'lib, turli xalqlar onomastikasida uchraydi. Demak, antroponimlarni ijtimoiy-lingvistik jihatdan o'rganish tilshunoslik, tarix, etnografiya, madaniyat, etnolingvistik va psixolingvistik kabi fanlar uchun muhim ma'lumotlar beradi. Xususan, ideonimlar tarkibida ham antropeik ismlar asosidagi nomlarni uchratish mumkin.

Masalan, *"Buksibay batyr"*, *"Gora Yamantay"* (xujjatli film), *"Podshoh va Sassiqqul"* (hikoya) nomli ideonimlarning paydo bo'lishida turkiy xalqlar dunyoqarashiga xos nomlar sabab bo'lgan. Jumladan, T.Kusimovanning yozishicha, boshqirdlarda bolaga qirq kun ichida ism berilmasa, u ism so'rab yig'laydi degan ishonch mavjud. Ushbu muallif boshqird tilidagi Sotibaldi, Saylik, Satilg'an, Tapildi, Tabish hamda Torson, Tərok (Turoq), Isən, Isənbikə, Isənsura, Terag'ol ismlarini «himoyalovchi nomlar» qatoriga kiritadi. U ushbu motivli ismlar qatoriga Bukbash, **Buksibay**, Buksa, Buktiy, Kildebukbasar (buk – kal), Ketkenə, Selegay (so'lakay), **Sasikg'ol** (Sassiqqul), chuvash tilidagi Sassikbash, **Yamantay**, Yamankay, Yamaka ismlarini ham kiritadi .[7]

Milliylik ismlar bilan namoyon bo'ladi. Ismlarni bola tug'ilishi bilan tanlash va atash o'zbek madaniyatida ota-onasi tomonidan amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, bolaga qo'yiladigan ismlar turli maqsadlarda amalga oshiriladi. Avvaldan "asrovchi nomlar", "himoya nomlari" kabi tushunchalar etnografik va onomastik adabiyotlarda keng qamrab olingan. Qadim zamonlardan beri ota-onalar farzandlarini turli dushmanlardan saqlash maqsadida ularga shunday nomlar qo'yishgan. Bu odat orqali bolani yovuz ruhlar va zararli kuchlardan himoya qilish niyati bo'lgan. Shuning uchun bola yomon, yoqimsiz, begona yoki sotib olingan deb atalgan, uning haqiqiy qadri-yo'qligi yashirilgan. Bunday usullar orqali bolaning kuchli, chidamli bo'lishiga ishonilgan va uni qattiq, mustahkam narsalarga o'xshatish bilan yanada himoyalangan deb hisoblangan. O'zbek tilidagi ideonimlar orasida ham antropeik nomlar, kam bo'lsa-da, kuzatiladi. Masalan, *"Toshbadal bobo"* (haykaltaroshlik asari), *"Temirbek"* (doston, Edgar Po asari, Faxriyor tarjimasini), *"Asqar Mahkam ijodi"* (maqola) kabi ismlarni yovuz kuchlardan himoya qilish yoki uzoq umr ko'rishini niyat qilish maqsadida qo'yiladigan ismlardan xosil bo'lgan.

Tabiat yoki hayvonot olami bilan bog'liq ismlardan shakllangan ideonimlar ham kuzatildi. *"Sheralisan"* (she'r nomi), *"Arslon izidan"* (film), *"Qoplonbek obrazi sizga*

*yoqdimi?*” (maqola) kabi ismlar kuch, jasorat yoki himoya ramzi sifatida tanlanadigan ismlardan paydo bo‘lgan ideonimlardir.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, tasviriy ismlar o‘ziga xos antroponimik namunalar hisoblanib, dunyoning ko‘plab xalqlari onomastikasida uchraydi va ideonim sifatida tanlanadi. Buning natijasida antropeideonimik nomlar xosil bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Супрун В.И. Ономастическое поле русского языка и его художественно-эстетический потенциал: автореф. дисс...д-ра филол.наук в форме науч.докл.: – Волгоград, 2000.
2. Tojiddinov A.A. Islom va milliy qadriyatlar <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ -111—son Qarori “Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to‘g‘risida” 4-mart, 2024.
4. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – T.: Fan,2013.
5. <https://www.apotropaios.co.uk/>
6. Allamuratova X. o‘zbek tilida apotropeik semantikali antroponimlar tasnifi.// Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил № 7)// –В.58-63
7. Кусимова Т.Х. Древнебашкирские антропонимы: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Уфа, 1975.

## КЛИНИКО-ПРОГНОСТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАРУШЕНИЯ ФУНКЦИИ ПОЧЕК У БОЛЬНЫХ С КОРОНАРНОЙ БОЛЕЗНЬЮ СЕРДЦА.

Пулатова П.Х., Ташкенбаева Э.Н..

**Аннотация.** Хроническая болезнь почек (ХБП) часто сопутствует сердечно-сосудистым заболеваниям (ССЗ), особенно коронарной болезни сердца (КБС). Такая взаимосвязь объясняется наличием общих факторов риска и механизмов патогенеза, которые приводят к развитию порочного круга, усугубляющего течение обоих заболеваний. Это явление получило название кардиоренального континуума. Механизмы, связывающие почечную дисфункцию (ПД) и неблагоприятные исходы у пациентов с острым коронарным синдромом, сложны и многообразны. Однако, данные исследований убедительно свидетельствуют о том, что снижение скорости клубочковой фильтрации (СКФ) ниже 60 мл/мин/1,73 м<sup>2</sup> является независимым фактором риска развития сердечно-сосудистых осложнений и смертности.

**Ключевые слова:** коронарный болезнь сердца, хроническая болезнь почек, почечная дисфункция

**Цель исследования.** Изучение частоты встречаемости почечной дисфункции (ПД) и ее прогностической значимости у больных коронарной болезнью сердца (ИБС).

**Материалы и методы.** Проведен ретроспективный анализ 247 историй болезни и протоколов ангиографии пациентов с заболеваниями сердечно сосудистой системы (ССС) за период с 2022 по 2024 годы, получавших лечение в Бухарский областной многопрофильный медицинский центр. Методом отбора была сформирована основная группа больных (136 человек) с поражением коронарных и почечных артерии, а также группа сравнения (142 пациентов) без поражений почечных артерии. Средний возраст больных варьировал от 41 до 76 лет (61,2±8,7). У 36 больных первой группы выявлены гемодинамически значимые сужения (>67%) почечной артерии с одной стороны. Изучены распространенность факторов риска, особенности коронарного кровотока и состояние функции почек. ДП диагностировалась у

пациентов со скоростью клубочковой фильтрации (СКФ) менее 60 мл/мин/ 1,73 м<sup>2</sup>, являющейся достоверным диагностическим критерием снижения почечной функции и не требующим наличия дополнительных признаков почечного повреждения. Статистическая обработка проводилась с использованием программы Microsoft Excel 2010 с использованием программы Statistica 10.0.

Результаты. У всех больных проводился анализ результатов коронароангиографии (КАГ), который выявил превалирование поражения передней межжелудочковой ветви левой коронарной артерии (ПМЖВ), как в группе с почечной дисфункцией (ПД) (54,3%), так и у больных с сохранной функцией почек (45,1%). Поражение правой коронарной артерии (ПКА) - 23,7% и 23,2%, огибающей ветви левой коронарной артерии (ОВЛКА) - 22% и 21,8%, соответственно. Было установлено, что у больных с ПД достоверно чаще наблюдалось трехсосудистое и многососудистое поражение коронарного русла, чем в группе сравнения (52,6% против 42,9%,  $p < 0,001$ ), также выявлялось однососудистое (22,1% против 20,3%,  $p < 0,05$ ) и двухсосудистое (32,6% против 27,1%,  $p < 0,05$ ) поражение коронарных артерий. В группе больных с сохранной функцией почек обструктивных изменений коронарных артерий (стеноз менее 50%) в 3,4% случаях не было выявлено.

Было установлено, что у больных с ПД достоверно чаще наблюдалось двухсосудистое, трехсосудистое и многососудистое (32,6% против 27,1%,  $p < 0,01$ ; 52,6% против 42,9%,  $p < 0,01$  и 12,3% против 7,1%,  $p < 0,01$  соответственно) поражение коронарного русла. В группе больных с ПД чаще встречались ИМ ( $p < 0,01$ ) и ОНМК в анамнезе ( $p < 0,05$ ), также значимое превалирование больных с

СД ( $p < 0,05$ ) чем в группе без поражение почек. В основной группе уровень гемоглобина ( $p < 0,001$ ) был достоверно ниже, уровень креатинина был  $123 \pm 4,1$  мкмоль/л и мочевины 7,9 ммоль/л, т.е. несколько выше чем у больных второй группы ( $p < 0,001$ ). Дальнейшие результаты анализа показали, что у 27 пациентов, имевших ПД после реваскуляризации миокарда и почечной артерии, нормализовались показатели почечной функции и стабилизировалось АД, улучшилась сердечная гемодинамика.

Заключение. При атеросклерозе часто наблюдается одновременное поражение коронарных и почечных артерий. ПД встречается чаще у больных с ИБС более

старшего возраста, имеющих множество факторов риска, в первую очередь артериальную гипертонию, сахарный диабет, ожирение, перенесенный инфаркт миокарда и мозговой инсульт, а также имеющие вредные привычки.

### **Список литературы**

1. Арутюнов, Г. П. Острый инфаркт миокарда и почечная функция / Г. П. Арутюнов, Л. Г. Оганезова // Нефрология. – 2010. – № 3. – С. 39-44.
2. Беялов, Ф. И. Диагностика и лечение ишемической болезни сердца при хронической болезни почек. 2010 [Электронный ресурс] / Ф. И. Беялов. – URL: [www.therapy.irkutsk.ru/my/ckdcad.pdf](http://www.therapy.irkutsk.ru/my/ckdcad.pdf) (дата обращения: 01.12.2015).
3. Беялов, Ф. И. Инфаркт миокарда у пациентов с нарушением функции почек. Гемодиализ для специалистов. 2010 [Электронный ресурс] / Ф. И. Беялов. – URL: <http://www.hd13.ru/article/1405/> (дата обращения: 22.12.2015).
4. Бова, А. А. Хроническая почечная недостаточность и хроническая болезнь почек: соотношение терминов / А. А. Бова // Воен. медицина. – 2012. – №– С. 25-34.
5. Бова, А. А. Хроническая болезнь почек как независимый фактор риска сердечно-сосудистой патологии / А. А. Бова // Воен. медицина. – 2014. – № 2. – С. 15-21.
6. Вельков, В. В. Современная лабораторная диагностика ренальных патологий: от ранних стадий до острой почечной недостаточности / В. В. Вельков, О. И. Резникова // Лаб. диагностика. – 2010. – № 4. – С. 59-65.
7. Вельков, В. В. Цистатин С и NGAL - маркеры преคลินิกеской ренальной дисфункции и субклинического острого повреждения почек. Лабораторная служба. 2015;4(2):38-43. Визир, В. А. Кардиоренальный синдром / В. А. Визир, А. Е. Березин // Артер. гипертензия. – 2011. – № 2. – С. 100-109.
8. Влияет ли на госпитальный прогноз больных с Q-образующим ОИМ эндоваскулярная реперфузия миокарда, выполненная в первые часы заболевания? / Е. Ц. Мачитидзе, И. Ю. Костянов, А. Г. Колединский, Д. Г. Иоселиани // Интервенц. кардиология. – 2010. – № 20. – С. 11-15.

9. Возрастные аспекты заболеваемости острыми формами ишемической болезни сердца и смертности от них у мужчин и женщин / С. А. Бойцов, С. С. Якушин, Н. Н. Никулина и др. // Рацион. фармакотерапия в кардиологии. – 2010. – Т. 6, № 5. – С. 639-644.
10. Волгина, Г. В. Контраст-индуцированная нефропатия: патогенез, факторы риска, стратегия профилактики (часть I) / Г. В. Волгина // Нефрология и диализ. – 2006. – № 1. – С. 69-77.
11. Волгина, Г. В. Контраст-индуцированная нефропатия. Эпидемиология, факторы риска, патофизиология / Г. В. Волгина // Радиология–практика. – 2007. – № 6. – С. 42-53.
12. Гиляревский, С. Р. Современные подходы к профилактике и лечению сердечно-сосудистых заболеваний у женщин в постменопаузе: роль заместительной гормональной терапии / С. Р. Гиляревский // Сердце. – 2006. – № 7. – С. 340-345.
13. Дедов, И. И. Проблемы острого инфаркта миокарда у больных сахарным диабетом: эхо Мюнхена / И. И. Дедов, А. А. Александров // Кардиология. – 2008. – № 1. – С. 4-10.
14. Демографический ежегодник России (официальное издание Федеральной службы государственной статистики) 2000-2011: стат. сб. / Росстат. – М., 2011. – 795 с.
15. Деформационные свойства эритроцитов человека в присутствии рентгеноконтрастных средств / О. А. Киселева, А. Н. Усенко, Е. Е. Сидорова и др. // Эксперим. и клин. фармакология. – 2009. – № 4. – С. 33- 35.

## **O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK SANOATINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI**

**Adolat Settiyeva Faxriddin qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

*Email: [adolatsettiyeva@gmail.com](mailto:adolatsettiyeva@gmail.com)*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O'zbekistonda zargarlik maqolalari sanoatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilindi. Maqolada Hindiston va Italiya kabi dunyoning yuk zargarlik sanoati mamlakatlarining O'zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilingan. Hisoblashda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyati – "Navoiy KMK" va "Olmaliq KMK" kabi yirik davlatning zararlanishi, xom-ashyo manbalarining yetarligi – alohida ta'kidlangan. Maqolada davlat tomonidan ajratilgan 10 milliard so'mliklaridan ozod qilingan, soliq imtiyozlari va bojxona to'lov mexanizmlari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** zargarlik sanoat, qimmatbaho metallar, davlat qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiy diversifikatsiya, eksport, xalqaro tajriba, soliq imtiyozlari, norasmiy iqtisodiyot, maxsus iqtisodiy zonalar, kadrlar tayyorlash, brending strategiyasi.

Bugungi kunda mamlakatimizda zargarlik sanoatini rivojlantirish va iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirish maqsadida keng ko'lamli islohot dasturlari amalga oshirilmoqda. Joriy yilning 26-iyun sanasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ – 207-son Qarori zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va sotish faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan navbatdagi islohotlardan biridir.

Mazkur hujjat qimmatbaho metallarni qayta ishlashning yillik hajmini 7 tonnaga, zargarlik buyumlarini eksport qilish ko'rsatkichlarini 300 million AQSh dollariga yetkazish va norasmiy aylanmani kamida 50 foizga qisqartirish kabi muhim maqsadlarni belgilab beradi<sup>1</sup> shunga ko'ra, quyida O'zbekiston tajribasini dunyoning yetakchi zargarlik sanoati

---

<sup>1</sup> (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2025-y., 07/25/207/0548-son)

rivojlangan mamlakatlarning amaliyoti bilan taqqoslash va xalqaro eng yaxshi tajribalardan foydalanish yo'llari tahlil etiladi.

O'zbekiston hukumati zargarlik sanoatini rivojlantirish uchun keng qamrovli moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqdi. Davlat budjetidan ushbu sohani qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratilgan 100 milliard so'm mablag'lardan tizimli foydalanish rejalari ishlab chiqildi. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan lizing tashkilotlariga qator moliyaviy imtiyozlari asosida 5 yilgacha muddatga kredit liniyasi ajratish imkoniyati yaratiladi.

Zargarlik sanoatida ishlatiladigan asbob-uskuna, ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlarning lizingga berilishida ham qator yengillilar yaratilib, sohada faoliyat yuritib kelayotgan subyektlarga O'zbekistonda mavjud bo'lmagan zargarlik sanoati uchun zarur asbob-uskunalar, ehtiyot qismlari va sarflov vositalarini mamlakat hududiga olib kirishga nisbatan 2028-yil 1-iyulga qadar bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etiladi<sup>2</sup>.

Zargarlik sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasini kuzatadigan bo'lsak, eng ko'p ijobiy yutuqlar Hindiston hisobiga to'g'ri kelishini ko'rishimiz mumkin. Hindiston dunyodagi zargarlik buyumlarining 70 foizini ishlab chiqaradi va 2023-yilda 40 milliard dollarlik zargarlik mahsulotlarini eksport qildi Hindistonning muvaffaqiyati bir nechta omillarga asoslangan.

Hindiston hukumati zargarlik sektorini keng qamrovli qo'llab-quvvatlashga alohida etibor beradi. "Gems and Jewellery Export Promotion Council" (GJEPC) davlat va biznes o'rtasidagi aloqalarni ta'minlaydi. Hindistonda 300 dan ortiq "Special Economic Zones" (SEZ) mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi zargarlik sanoatiga ixtisoslashgan. Hindistonning "Pradhan Mantri Kaushal Vikas Yojana" dasturi doirasida zargarlik sohasi uchun maxsus kadrlar tayyorlash dasturlari amalga oshiriladi. Mumbai va Surat shaharlari dunyoning eng yirik zargarlik klasterlari hisoblanadi.<sup>3</sup>

Italiya esa dunyodagi eng yirik zargarlik eksportchilari orasida bo'lib, 2023-yilda 15 milliard dollarlik eksport amalga oshirdi<sup>4</sup>. Italiyaning "Made in Italy" brendi zargarlik

<sup>2</sup> (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2025-y., 07/25/207/0548-son)

<sup>3</sup> Gems and Jewellery Export Promotion Council. "Annual Report 2023." <https://www.gjepc.org/annual-reports> Government of India. "National Policy on Gems and Jewellery 2018." Available at: <https://www.commerce.gov.in/trade/international-trade-policy/>

<sup>4</sup> <https://www.madeinitaly.gov.it/>

sohasida yana ham yuqori obro'ga ega. Italiyaning Vicenza va Arezzo shaharlari dunyodagi eng muhim zargarlik markazlari hisoblanadi. "Fiera di Vicenza" har yili o'tkaziladigan "VicenzaOro" ko'rgazmasi dunyodagi eng yirik zargarlik yarmarkalaridan biridir<sup>5</sup>.

Yuqoridagilar kabi xorijiy mamlakatlar ijobiy tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston hukumati tomonidan kelgusida zargarlik sanoatini rivojlantirish uchun xalqaro tajribadan foydalangan holda zargarlik sohasida kadrlar tayyorlash institutlarini yaratish tizimi haqida rejalashtirilmoqda.

Bundan tashari, O'zbekiston yondashuvining o'ziga xos jihatlari ham mavjud bo'lib, O'zbekistonda xom-ashyo manbai sifatida "Navoiy KMK" va "Olmaliq KMK" kabi yirik davlat korxonalari mavjud. Bu boshqa mamlakatlarda kam uchraydigan afzallikdir.

Ikkinchidan, Italiya modelidan ilhomlanib, "Made in Uzbekistan" brendi yaratish va xalqao bozorda O'zbekistonga tegishli qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik buyumlari maqomini mustahkamlash hamda. O'zbekiston brendiga tegishli zargarlik buyumlarining o'ziga xos dizayni va sifat belgilarini ishlab chiqish maqsad qilingan.

O'zbekistonda zargarlik sanoatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohot dasturi xalqaro eng yaxshi amaliyotlarga asoslangan va mamlakatning iqtisodiy diversifikatsiya strategiyasining muhim qismidir. Qabul qilingan choralar moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari, zargarlik markazlarini yaratish va norasmiy iqtisodiyotga qarshi kurash kabi kompleks yondashuvni aks ettiradi.

Shunga ko'a, Hindiston, Italiya kabi davlatlar ijobiy tajribasini o'rganish O'zbekiston uchun sohani rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Davlat qo'llab-quvvatlashi, maxsus iqtisodiy zonalar yaratish, kadrlar tayyorlash va xalqaro brendingga e'tibor berish zargarlik sanoatini rivojlantirishning muhim omillaridir.

O'zbekistondagi "Navoiy KMK" va "Olmaliq KMK" kabi yirik qimmatbaho metallar ishlab chiqaruvchilarining mavjudligi mamlakatga noyob raqobat afzalligini beradi. Buni to'g'ri ishlatish orqali O'zbekiston mintaqaviy zargarlik markazi bo'lishi mumkin.

---

<sup>5</sup> Italian Jewelry Industry Association. "Annual Industry Report 2023." Available at: <https://www.federorafai.it/>

**Foydalanilgan adabiyotlar va internet nashrlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 207-son Qaror.2025-yil 26-iyun. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.06.2025-y., 07/25/207/0548-son)
2. Gems and Jewellery Export Promotion Council. "Annual Report 2023." <https://www.gjepc.org/annual-reports> Government of India. "National Policy on Gems and Jewellery 2018." Available at: <https://www.commerce.gov.in/trade/international-trade-policy/>
3. <https://www.madeinitaly.gov.it/>
4. Italian Jewelry Industry Association. "Annual Industry Report 2023." <https://www.federorafit.it/>
5. Gems and Jewellery Export Promotion Council. "Annual Report 2023." Available at: <https://www.gjepc.org/annual-reports>
6. Government of India. "National Policy on Gems and Jewellery 2018." Available at: <https://www.commerce.gov.in/trade/international-trade-policy/>
7. Ministry of Commerce and Industry, India. "Special Economic Zones in India." Available at: <https://www.sezindia.nic.in/>
8. Ministry of Skill Development and Entrepreneurship. "Pradhan Mantri Kaushal Vikas Yojana." Available at: <https://www.pmkvyofficial.org/>
9. Mumbai Diamond and Precious Metal Trading. "Industry Overview 2023." Available at: <https://www.mdpta.com/>

**«YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR  
FANLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**  
**3-TOM, 07-SON (Iyul)**

**MUNDARIJA**

<b>1</b>	<b>KAZUO ISHIGURONING “THE REMAINS OF THE DAY” ROMANIDA XOTIRA, PUSHAJMONLIK VA SHAXSIY IDENTITET MUAMMOSI</b> Usmonova Gavhar Tolib qizi	<b>5-9</b>
<b>2</b>	<b>TABIIY OFATLAR XAVFINI KAMAYTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOTNING MOLIYALASHTIRISHDAGI ROLI</b> Tursunboyeva Maxsuda	<b>10-14</b>
<b>3</b>	<b>KAMBAG‘ALLIK TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY-IJTIMOIIY ASOSLARI</b> Azamaliyeva Madinaxon	<b>15-18</b>
<b>4</b>	<b>ZO‘RAVONLIK – JAMIYATNING SUKUTDAGI FARYODIDIR</b> Achilov Fazil Abdurashidovich	<b>19-22</b>
<b>5</b>	<b>УСТРОЙСТВО ДЛЯ ЭКСПОЗИЦИИ ЛАПАРОСКОПИЧЕСКОГО ДОСТУПА У ПАЦИЕНТОВ С ОЖИРЕНИЕМ</b> Хамдамов Илхомжон Бахтиёрович	<b>23-31</b>
<b>6</b>	<b>RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KICHIK KORXONALARDA MEHNATNI ME‘YORLASHTIRISH TIZIMINING TAKOMILLASHUVI (SANOAT-4.0 ASOSIDA)</b> Abduxamidov Abduraxmon Abdulatif o‘g‘li	<b>32-37</b>
<b>7</b>	<b>ONIMLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN ANTROPOIDEONIMLAR VA ULARNING MADANIY AHAMIYATI</b> Zumradxon Jonbo‘tayeva	<b>38-43</b>
<b>8</b>	<b>КЛИНИКО-ПРОГНОСТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАРУШЕНИЯ ФУНКЦИИ ПОЧЕК У БОЛЬНЫХ С КОРОНАРНОЙ БОЛЕЗНЬЮ СЕРДЦА</b> Пулатова П.Х., Ташкенбаева Э.Н..	<b>44-47</b>
<b>9</b>	<b>O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK SANOATINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARI</b> Adolat Settiyeva Faxriddin qizi	<b>48-51</b>
	<b>OUTLINE</b>	<b>52</b>